

O`zbekiston Respublikasi Oliy va  
O`rta maxsus ta`lim vazirligi

Namangan Davlat Universiteti

«Tasviriy san`at va muxandislik grafikasi»  
kafedrasи

*Amaliy va badiiy bezak san`ati* fanidan  
Ma`ruzalar matni.



Namangan-2018



Mazkur ma`ruzalar matni O`zbekiston Respublikasi Davlat standarti va Amaliy va badiiy bezak san`ati fani bo`yicha namunaviy dastur asosida tuzilgan bo`lib oliy ta`limning 5110800–Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi ta`lim yo`nalishi bakalavrning tayyorgarlik darajasiga to`la mos keladi.

**Tuzuvchi:** dots. O`Abdullayev

**Taqrizchi:** dots. B.Jabbarov

o`qit. B.Oripov

## **Kirish.**

Buyuk maqsadlar sari dadil qadam tashlayotgan O`zbekiston Respublikasida jamiyat sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda ma`naviyatni yuksaltirishga ham alohida e`tibor berilmoqda. Xalqimiz ma`naviy qadriyatlariga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo`lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimizni, urf-odatlarimizni, beba ho tarixiy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko`tarildi.

Markaziy Osiyo san`ati qadimiyligi, boy madaniyati bilan dunyoga mashhurdir. Uning zaminida qad ko`tarib turgan va tuproq qatlamlari orasida topilayotgan tarixiy qazilma yodgorliklari o`ziga xos ulkan bir muzeyni tashkil qiladi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg`ona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy san`ati o`tmish avlodlarimiz tomonidan yaratilgan takrorlanmas, teran mazmunli, barkamol va tarixning yuqori badiiy qiymatli madaniyat yodgorligi namunasi sifatida xalqimizning, jahon madaniyatining durdonalaridan bo`lgan badiiy ma`naviy merosni tashkil etadi.

Asrlar davomida orttirilgan madaniy boyligimiz, xususan, o`zbek milliy xalq amaliy bezak san`atining ganchkorlik, naqqoshlik, yogoch o`ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, savatchilik, zargarlik, kulollik, kashtachilik, chitgarlik, toshtaroshlik, bo`yrachilik kabi turlarining o`ziga xos maktablari va uslublarini yaratgan ustalarning nomlari hamda termin va atamalari asta-sekin yo`qolib ketish xavfi ostida qoldi. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo`yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan va yaratib kelinayotgan o`zbek xalq amaliy bezak san`atini ko`z qorachigidek saqlash, qadrlash, ulardan amalda foydalanish, yoshlarga o`rgatish orqali ularning estetik didini o`stirish, hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash hozirgi davrimizning muhim vazifalaridan birdir.

Yoshlar O`zbekiston xalq amaliy bezak san`ati turlariga oid beriladigan bilimlar ma`naviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo`lgan badiiy madaniyatni uygun rivojlantirishga xizmat qiladi va shaxs uchun muhim bo`lgan qator sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa yoshlarni milliy merosni o`zlashtirish hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishlari uchun ko`maklashadi.

## **I.Mavzu: O`zbek, milliy san`atida badiiy naqqoshlikning roli. Amaliy san`at va uning turlari. Naqqoshlik san`ati tarixi. Naqqoshlik san`atida ishlataladigan asbob-uskunalar va materiallar.**

### **Reja:**

1. Amaliy san`at tushunchasi.
2. Amaliy san`at turlari.
3. Naqqoshlik san`ati asoslari.
4. Naqqoshlik san`atida ishlataladigan asbob-uskunallar.

Amaliy san`atni haqida umumiy tushuncha O`zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining barcha saxolarida ro`y berayotgan tub o`zgarishlar ma`naviy, ma`rifiy, mafkuraviy, kasbiy jixatdan mutloko yangi zamon kishisini shakillantirishni talab etadi. Xozirgi zamon yoshlarini milliy, sharkona, tarixiy kadriyatlarni hisobga olgan xolda, zamonaviy ruhda tarbiyalash hamda ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo`lgan kasb soxiblarni tayyorlash muommasi davlat mikiyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda respublika hukumatining kator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama andozalari talablari asosida rivojlanishiga karatilmokda. Jumladan, yoshlarga ta`lim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy san`at namunalaridan, ota - bobolar tomonidan yaratgan va butun jahonga mashhur bo`lgan ajoyib san`at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Ta`lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo`l va uslublar yigindisi o`qitish metodikasi deyiladi. Darslarni to`gri tashkil etish o`qituvchini o`z oldiga qo`ygan maqsadiga ham boglik. Shu bilan birga darslarni nazariy ham amaliy qoidalariga asosan o`tilsa, o`quvchilarni o`zlashtirish darajasi yuqori bo`ladi.

Metodika so`zining o`zi ikki xil, ya`ni umumiy va xususiy metodika turlarga bo`linadi. Umumiyl metodika kasb - hunar kollejlarida olib boradigan barcha ta`lim - tarbiya ishlariga, xususiy metodika esa u yoki bu o`quv predmetiga nisbatan qo`llaniladi. Amaliy san`at o`qitish metodikasi pedagogika, psixalogiya, san`atshunoslik, etika, esetika, fiziologiya sohasidagi nazariy xulosalarga asoslanadi. Pedagogik nazariyada uch xil metod bo`lib, nutqiy namoyish etish va amaliy ishdan iboratdir. Har bir ushbu metodlar ham bir necha bo`lak metodlarga bo`linadi. Masalan nutqiy metodlar (tushintirish, suhbat, hikoya qilish, kitob bilan ishslash, savol javob kabi metodlar bor). Ko`rgazmali metod (kuzatish, namoyish kabi metodlarga bo`linadi), amaliy ishlar (mashq, rasm ishslash, ijodiy ish o`yin kabi metodlar bor) bo`linadi. O`qituvchilar faoliyatida “uslub” degan so`z ham ishlataladi. “O`qitish uslubi” deb biz o`qitish metodlarini ayrim qirralarini tushunamiz. “O`qitish uslublaridan “ o`qitish metodi tashkil topadi. Metod (yunoncha metodos - bilish yoki tadqigot yo`li, nazariya, ta`limot) voqealikni amaliy va nazariy egallahash, o`zlashtirish, o`rganish, bilish uchun yo`l-yo`riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi.

Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko`p vaqt va kuch sariflamaydi. Metod o`z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo`lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatga oid metodlar ham voqelikga mos bo`lgan qonunyatlarni anglab etish bilib olishga borib taqaladi.

Naqqoshlik san`ati O`rta Osiyda juda qadimdan vujudga kelgan bo`lib, o`ziga xos betakror namunalari bilan ajralib turadi. Har bir naqshni tashqi ko`rinishini ifodalovchi ajib bir gullari yaproq, novda, islimi, grix kabilar bilan birga chuqur ichki ma`nosi bor. Bunda har bir shakl aniq o`lchamda hamohang bo`lishi, ranglar bilan o`zaro mutanosib tanlanishi kerak.



Milliy naqshlarimiz g`oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg`u asboblari, uy-ro`zg`or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o`ylantiradi. Bu go`zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo`lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me`morchilik hamda tasviriy san`at rivoji bilan bog`langan holda takomillashib bordi.

Naqsh – arabcha tasvir gul degan ma`noni anglatadi. Quyosh, hayvon, o`simplik, geometrik va boshqa elementlarni ma`lum tartibda takrorlanishidan xosil qilingan bezakdir. Chunonchi, Xitoyda, Qadimiy Eronda, Xindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko`rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o`ziga xos muhitga: geografik o`ringa, o`lkaning o`simplik dunyosiga ko`ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa har xil hayvonlar, qirg`iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklarda va o`zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarini ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko`rasizv O`zbekiston territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So`g`d, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san`atining rivojlanganligi ma`lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (I asr)udda ibodatxonalar qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab bergenlar. Xorazmdagi Tuproqqal`a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma`lum. VI-VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o`yma naqshlar hamda tavsirlar bilan bezatilgan.

Naqqoshlik san`ati barcha amaliy san`at turlarining tarkibiy qismi o`laroq, O`rta Osiyo xalqlari orasida o`zining nafis shakllari, rangin tovlanishi hamda ramziy ma`nolariga boyligi bilan qadimdan keng rivojlanib kelmoqda.

Naqqoshlikda ko`plab material va asboblar ishlatiladi. Naqsh chizish uchun oq qog'oz, yumshoq qora qalam, chizg'ich va o`chirg'ich. Bo`yoq turlaridan guash, akvarel, moy bo`yoqlari, suv idish va ranglarni qorish uchun idishchalar. Turli nomerlardagi mo`yqalamlar, pargor, shaffof qog'ozi, kumush va tilla hal kukuni, xoka, nina, duradgorlik elimi, bo`r, alif, lak va hokazolar kerak bo`ladi.

Ularning ishlatilishini va ahamiyatlari bilan tanishaylik. Naqshlarni bo`yash va ularga pardoz berishda bo`rsiq, suvsar, olmaxon kabi hayvonlarning yungidan tayyorlangan mayin mo`yqalamlar ishlatiladi. Mayda qil-qalamlarni uchi ingichkaligi sababli naqshdagi nozik joylarni ishlashda qulaylik tug'diradi. Naqqosh ustalar zarurat tug'ilsa yirikroq mo`yqalamlarni iplar bilan bo`lib bog'lagan holda kichiklashtirib ishlatadilar.

### ***Mo`yqalam turlari:***

*Mo`yqalam* – naqshlarning zaminlarini, shakl yuzalarini, gul, novda elementlarini bo`yashda ishlatiladi.

*Obiqalam* – naqqoshlikda obi tortish naqsh yo`llariga suv tortish degan ma`noni anglatadi. Obi mo`yqalam yakka bandli tanob chiziqlarini oq bo`yoq bilan chizishda va mayda gul shakllarini ranglashda ishlatiladi.

*Pardozqalam* – gul qalam, targ'il qalam, mayda qillik mo`yqalam bo`lib, gul novda, barg va boshqa shakllarni nozik chiziqlar bilan chizilib, targ'il berishda ishlatiladi.

*Chakma qalam* – naqshlardagi chegara mazmunidagi bo`yalgan qora chiziqlar ustiga qo`yiluvchi to`rtko`z chakma tomchilarini berishda ishlatiladi. Chakma qalamni cho`pdan, uchi gugurt cho`pidan ingichkaror yo`nib yasaladi. To`rtko`z chakma tomchilarini uchi to`mtoqroq mayda mo`yqalamlar yordamida qo`ysa ham bo`ladi.

Mo`yqalamlarning yaxshi saqlanishi uchun ularni ishlatib bo`lingach yaxshilab yuvilib qalamdonga yoki maxsus tirgakka qo`yiladi.

Belcha (shpatel) – buyum yoki naqsh chiziluvchi biron-bir sath yuzasini maxsus qorishma surtib silliqlashda ishlatiladi. Belchalar katta o`rtacha va kichik turlardan iborat bo`ladi.

### ***Bo`yoq turlari:***

Naqshlarni bo`yashda moyli tempera va asosan suvli bo`yoqlardan keng foydalilaniladi. Suvli bo`yoqlarga guash, akvarel, emulsiya, kukun holidagi quruq bo`yoqlar kiradi. Naqqoshlikda eng ko`p ishlatiladigan oq rang tusi bo`lib, u boshqa bo`yoq turlari bilan aralashtirilib ishlatiladi.

*Qog'ozlar* – naqqoshlikda oq chizma qog'ozi kalka va millimetrovka qog'ozlaridan foydalilaniladi. Naqsh chizishning boshlang'ich davrlarida katak daftari va chizmachilik al'bomlaridan foydalilaniladi.

Katta naqsh eskizlarini tayyorlashda millimetrovka qog'ozi ishlatiladi. Bu kabi eskizlardan kalka-shaffof (xitoy) qog'oziga nusxa olinib ulgi (trafaret) tayyorlanadi.

Qalam va o`chirg'ich – naqsh chizmalarini chiroyli va ravon chizilishida katta ahamiyatga ega. Chizganda va o`chirganda qog'oz yuzasini titilib ketmasligi uchun

sifatli o`rtacha yumshoqlikdagi qalam va o`chirg'ichlardan foydalanish kerak. Titilib ketgan qog'oz yuzalariga bo`yoq tuslarini berish, sifatini buzadi. Albatta chizmalarni qoralama eskizlar yordamida bajarib, bo`yab pardozlash uchun toza qog'ozga nusxa ko`chirib ishlangani ma`qul. Qalam bilan naqsh chizishda aniqlik bilan chizish kerak.

Tsirkul (pargor) – aylanalar ishtirokidagi oddiy va murakkab geometrik naqshlarni chizishda ishlatiladi.

Aylana-panjarasimon naqshlarni ko`proq chizuvchi ustalarni amaliy san`atda pargori ustalar deb atashadi.

Nina-shaffof qog'oziga chizilgan naqsh nusxalarini teshib axtalar tayyorlashda qo`l keladi.

Pista ko`mir chala yongan yog'och bo`laklari bo`lib, undan xoka tayyorlanadi. Xokani axta (trafaret) ustidan yurgizib nusxa tushiriladi.

Jilvir qog'oz. Jilvir qog'oz yog'och buyumlarini naqshlashga tayyorlashda ularni sillqlash uchun ishlatiladi.

Tilla va kumush hallar-sariq, jez va alyuminning kukunlari bo`lib, yog'och muyumlarini naqshlashda umumiylarini vazifasida berilib, yog'och buyumlarini naqshlashda umumiylarini vazifasida berilib ham ishlanadi. Naqshlar bunday usulda ishlanganda hallangan buyum ustiga to`g'ridan-to`g'ri naqsh kompozitsiyasi tushirilib siyoh-qalam tortiladi. Naqshning qo`sh bandlari gul, novda va ayrim hoshiyalarni mana shu haldagi fonda qoldirilishi mumkin.

Naqshlarni bunday usulda ishslash qadimdan qo`llanib kelinadi. Tilla va kumush hallarni daraxt va duradgorlik elimlariga qorilgan. Hozirda ularni PVA kleyiga qorish mumkin.

Shpaklyovka – yuzalarni naqshlashdan oldin sirtni tekislash uchun suriladigan quyuq massa. Shpaklyovka tayyorlash uchun duradgorlik elimi, mayda bo`r (mel), alif moy kerak bo`ladi.

### ***Tayanch tushunchalar:***

Kvadrat, Quyosh, Yelim, Zirk guli (gulsafsar), Olma, Sher, Xumo, Yashil rang, Havo rang, Shosh.

### ***Nazorat savollari:***

1. Naqqoshlik san`ati tarixi va uning rivojlanishi haqida nimalarini bilasiz ?
2. Naqqoshlik maktablari va ularning namoyondalarini ayting ?
3. Zamonaviy naqqosh ustalardan kimlarni bilasiz ?
4. Naqqoshlikda ishlatiladigan xom ashyolarga nimalar kiradi ?

### ***Foydanilgan adabiyotlar.***

1. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. – T.: «Fan» nashriyoti, 1977, 13-bet
2. Azimov I. O`zbekiston naqsh nigorlari. – T.: G`ulom nomli adabiyoti va san`at nashriyoti, 1987, 8-bet.
3. N.Oydinov. O`zbekiston xalqlari san`ati tarixi. (Dastur), T. 1993 y.
4. S.S.Bulatov. O`zbek xalq amaliy san`ati bezagi - T.: "Mexnat" 1991.

## **II-Mavzu . Tarbiya jarayonida amaliy san`atning o`rni va roli.Ustoz va shogird odobi.**

### **Reja:**

1. O`rta Osiyoda ustoz va shogird an`analari.
2. Hunarmandlarning kasb madaniyati.
3. Hunarmandlar odobi.
4. Shogirdlik odobi.

Biz bu zamonda bamisoli tog' oshayotgan odamlarmiz . Tog' yo'li balandligi ham ko'p bo'ladi. Inson hayoti bir manzildan ikkinchi manzil qaraab yuriladigan yo'lga o'xshaydi. Bu yo'lning tekis , ravonligi ham , past mardlik , jasoratni ham , bag'oyat hushyorlikni ham talab etadi, degan edi shoir Erkin Vohidov.

Yoshlarimizga milly hunarmandchilikni o'rgatib , millyiy an'analarni davom ettirib kelayotgan ustalar kam emas . Biroq , shunga qaramay , o'zbek milliy an'analarni qayta tiklash eng muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Xalq hunarmandchiligidagi ustozlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarining mezonini bo'lgan . Shu mezon asosida ustaga ijobiy va salbiy baho bergenlar. Shuning uchun ota farzandini shogirdlikka berishdan oldin ustuning yuqoridagi mezonga javob bera olish-olmasligini o'rgangan. Quyida xalq hunarmandchiligidagi ustozlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlari bilan tanishamiz.

Ustozning shaxsiy fazilatrlari. Saxiy , odobli , mehr-shavqatli , marhamatli, ochiq yuzli,shirin muomalali , sabrli,talabchan, qanoatli , to'g'ri so'zli, pok bo'lish.

Rizouddin ibn Faxriddin ustozlarga shunday nasihat qilgan edi:

“Shogirdingizning har bir harakatiga qrab turingiz, ularga xushmuo-mala bo'lishni o'rgatingiz , so'zlariyu fellarini yaxshilangiz , ust-boshlarini , kiyim-kechaklarini pok tutmoqlarini nazorat aylangiz.Yomon xulqlar yuqumli bo'lganidan bir shogirdning yomon xulqi borligini bilsangiz, junlasini barobar ko'rib, jumlesi foyda olajak ravishda o'rgatingiz, foydali ishlar, kerakli adablarning jumlasidan xabardor aylangiz, natijada bola mumkin qadar reja ila ish qilmoq , ehtiyyotkorlik , poklik, ko'rakam tartib , ko'p foydasiga tirishmak kabi xosiyatlarini egallab oladi “ .

### **Hunarmandlarning kasb madaniyati.**

Ular quyidagiladan iborat:

- Hunarni jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish mqsadida o'rganish;
- mehnatsiz daromaddan qochish ;
- ustozla an'anasiga sodiq bo'lish;
- mehnatsevarlik, halol mehnat qilish;
- intizomli bo'lish;
- muvaffaqiyatsizlikdan tushkunlikka tushmaslik;
- aqlii, tadbirkor bo'lish ;
- rostgo'y bo'lish;
- pokiza bo'lish;
- bir ishni qiyomiga yetkazmay, ikkinchi ishga o'tmaslik.

- Hunarmand xoli bo'lishi lozim bo'lgan salbiy xususiyatlar ;
- nopok yo'llar bilan boylik orttirish ;
- boshqa hunarmandlarga nisbatan adovatda bo'lish va hasadgo'ylik;
- faqat boylik orttirish maqsadini kozlash ;
- jur'atsizlik dangasalik , yalqovlik, erinchoqlik, isrofgarlik, takkaburlik, yolg'onchilik.

Shogirdlardan ba'zan ayrim kamchiliklar o'tib turadi. Ustozning vazifasi – ularning kamchiliklarini kechirish, bunday ishlarga yo'l qo'ymas-liklari uchun shogirdlariga yordam berish.

Ustozning kechira olishi oliyjanoblik va olimlarga xos sifatdir. "Kichiklardan adashish , kattalardan kechirish" deb bejiz aytishmagan .

Ustozning kasbiy fazilatlari. Ustozning kasbiy fazilatlariga o'z hunariga qiziqish , hunarini yoshlarga sidqidildan o'rgatish, hunariga yangilik kiritish , yaxshi shogirdlar qoldirish va boshqalar kiradi.

Ustozning eng yaxshi kasbiy fazilatlaridan biri-shogirdlar tayyorlashdir. Har bir hunarmand ustuning shogirdi bo'ladi. Shogirdsiz ustoz –mevasiz daraxt . Ustoz bilimdon shogird qoldirmasa, bu- uning hayoti , umri bekor o'tadi degan gap. Usta qanchalik buyuk bo'lmasin , tarixda qanchalik iz qoldirmasin bilimini, hunarini ishonchli odamga qoldirmasa, uning ishlari oxir oqiat yo'q bo'lib ketadi.

Qadimda hunarmand va xaridor o'rtasidagi munosabatlarda o'ziga xos odob mezonlari mavjud bo'lgan . Ular quyidagilardan iborat.

- savdoda poklik ;
- halollik ;
- adolatlilik;
- to'g'rilik;
- xushfe'llik ;
- nafsni tiyish ;
- kambag'al bechoralarga xayru ehson qilish ;
- mahsulotning asl bahosini bilmaganlarga to'g'ri muomala qilish ;
- va'daga vafo;
- bajara olmagan ishga va'da bermaslik.

Ota-onalarning farzandiga hunar o'rgatayotgan ustoz o'didagi burchlari va munosabat madaniyati. Qadimda ota-onalar farzadlaiga hunar o'rgatayotgan ustozni hurmat –ehtirom qilganlar. Ota-onalar va ustozar o'rtasida munosabatmadaniyati ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lfgan.

Ota – onaning ustozga munosabatida:

- ustozga muruvvat ko'rsatish ;
- ustozning farzandiga bergen tanbehini to'g'ri tushunish;
- farzandining hunar o'rganishi uchun kerakli narsalarni yetkazib berish ;
- ustozni rozi qilish va boshqalar talab qilinadi.

Ustozning ota-onaga ham o'ziga xos munosabat mezoni bo'lgan . Ular quyidagilardan iborat:

- shogirdiga hunar o'rgatish borasida zimmasiga olgan vazifasini bajarish ;
- o'z vadasining ustidan chiqish;

-ota-onaga farzandining qobiliyati, xulq odobi to'g'risida ochiq gapirish.

Xulosa qilib aytganda, hunarmandchilik Sharq xalqlarining qadimiy qadriyatidir. Uning o'ziga xos milliylik xusuyatlari, ta'limiylar, tarbiyaviy imkoniyatlari, ustoz-shogird an'analari, ular o'rtasidagi axloq – odob mezoni, madaniyati yosh avlodni hunarmandchilik kasbiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Ustoz shogirdiga qiyinchiliklar bilan san'at sirlarini o'rgatdimi, san'at olamiga olib krdimi, uni sahogird chuqur hurmat qilmog'I ham farz, ham shartdir. Bu haqda buyuk mutafakkir Alisher Naoiy shunday degan edi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,

Haqqini ado aylamoq mushkul erur ming ganj ila.

Shogird ustozni hurmat qilishi va uning mehnatining qadriga yetmog'I kerak.

Bir hakimdan :

-Nima uchun siz ustozingizni otangizdek hurmat qilasiz ?- deb so'rashdi.

U bunday javob berdi:

-Otam dunyoga kelishimga sababchi bo'lgan bo'lsa, ustozim hayotini boricha yaxshi yashashimga sabab bo'ldi.

Bazida shogirdlar hunarni puxta o'rganib oldim deb kekkayib, ustozni pisand qilmay qo'yadilar. Keyinchalik ular sifatsiz islar qilib, qoqilib pushaymon yeydilar. Bu haqida Usta Mahmud Usmon o'zining "San'atim – saodatim" degan kitobida shunday deydi: Men qo'lidan ish keladigan chapdast shogirdlarimni tanlab, oq fotiha berib, alohida brigada qilib chiqardim. Ular katta-katta, ma'suliyatli buyurtmalarni bajarib kelmoqdalar. Bilmaganlarini so'rashadi, yordam qo'lini cho'zaman.

Ustoz kasb o'rganishga kelgan yoshni o'z o'g'li qatorida ko'rishi, shogird esa ustozini o'z otasi o'rnida ko'rishi kerak. Xalqimiz "Ustoz otangdek ulug'" deb bejiz aytmagan.

### **Hunarmandlar odobi.**

Alisher Navoiyning zamondoshi, olim, mudarris Husayn Voiz Koshifiy hunarmandlar odobi haqida bunday deydi.:

"Sendan hunarmandlar o'rtasida nechta odob qoidasi bor, deb so'rasalar, sakkizta deb javob ber:

Birinchi:o'z hunarlarini iflos va shubhali daromadlardan asraydilar .

Ikkinci:hunarni boylik orttirish manbai deb umas , balki hayotda munosib o'rin egallash maqsadida o'rganadilar .

Uchinchi :o'z ishlarining ustalariga doimo hurmat va ehtiromda bo'ladilar

To'rtinchi :nopok yo'llar orqali boylik to'plovchilar bilan aloqa qilmaydilar.

Beshinchi :ishda kamchilikka yo'l qo'ymaydilar va tanlagan kasblariga befarq bo'lmaydilar.

Oltinchi: mahsulotning asl bahodini bilmaganlarga to'g'ri muomala qiladilar.

Yettinchi" agar oldi-berdi bilan bog'liq bo'lsa, kam bermaslikva ko'p haq olmaslikka intiladilr .

Sakkizinchi “agar ish hisob bilan bitadigan bo’lsa , o’z xissasini jamiyat hissasidan yuqori qo’ymaslik kerak , chunki yurt farovonligi xuddi ana shu jamiyat jamg’armasi tufayli yuzaga keladi”.

### **Shogirdlik odobi**

Birinchi:o’z ishini sevish .

Ikkinci :o’z ishiga e’tiqod qo’yish .

Uchinchi :ustoz oldida hoksor bo’lish , yomon odatlarini tark etish .

To’rtinchi :ko’rish lozim bo’lмаган hamma narsalardan nigohini olib ochish.

Beshinchi :eshitish miumkin bo’lмаган barcha narsalarga qulq solmaslik.

Oltinchi: barcha noloyiq ishlardan qo’l tortish .

Yettinchi: ustoziga zid bo’lgan kishilar bilan muomala qilmaslik.

### **Shogirdlik asoslari.**

Rostgo’ylik, vafodorlik, nasihatni qulq olish , ozor bermaslik va sir saqlash .

Shogirdning eng yaxshi xislati –poklik.

Husayn Voiz Koshifiy shog ird odobi haqida shunday deydi.:

Ustoz qabuliga kirganda yoki ustozini ko’rganda , birinchi bo’lib salom berish.

-Ustozning oldida oz gapirish va boshni oldinga egib turish, ko’zni har tomonga yogurtirmaslik. Agar masala so’ramoqchi bo’lsa, oldin ustozdan ijozat olish.

-Ustoz javob aytganda , e’tiroz bildirmaslik.

-Ustoz oldida boshqalarni g’iybat qilmaslik.

-O’tirib- turishda hurmatni to’liq saqlash<sup>1</sup>.

### **Tayanch tushunchalar:**

1. Usta, Xalfa, Kalon, Zardo’zlik, Me’mor,Ustoz,Usta zoda, Eti`qod.

### **Nazarot savollari:**

1 .O’rta Osiyoda ustoz va shogird an’analari haqida qanday tushunchaga egasiz?

2. Ustozning shaxsiy namunasi iborasiga izoh berin ?

3. Ota-onalarning farzandiga hunar o’rgatayotgan ustoz o;didagi burchlari va munosabat madaniyati ?

### **Foydanilgan adabiyotlar.**

1. Axloq va odobga oid hadis namunalari. - Toshkent: Fan,1991.
2. Bulatov S.S. Ganchkorlik va amaliy san’at yog’och o’ymakorligiga oid adabiyotlarning izohli lug’at. - Toshkent: Mehnat, 1991.
3. G’ulomov S.S., Bulatov S.S. Sharqona "Usta-shogird" odobi. UzRO’MTV o’quv adabiyotlari, jurnal va byulletenlarni nashrga tayyorlash markazi, 2000.
4. S.S.Bulatov. O`zbek xalq amaliy san’ati bezagi - T.: "Mexnat" 1991.
5. www.nbgt.intal

### **III-Mavzu .Badiiy naqqoshlikda zamonaviy ramzlar va milliy qadriyatlar .**

#### **Reja**

1. Naqqoshlik san`atida o`ziga xos nagsh maktablari
2. O`zbekistonda naqqoshlik san`atining o`ziga xosligi.
3. Samargand, Buxoro, Toshkent, Xorazm naqqoshlik maktablarini o`ziga xosligi.

Naqqoshlik san`ati barcha amaliy san`at turlarining tarkibiy gismi o`larog,

O`rta Osiyo xalglari orasida o`zining nafis shakllari, rangin tovlanishi hamda ramziy ma`nolariga boyligi bilan gadimdan keng rivojlanib kelmogda.

Ma`lumki vatanimizni ko`rkiga ko`rk go`shib turgan Samargand, Buxoro, Toshkent, Xorazm kabi shaharlardagi ko`hna obidalar ganchkorlik, yogoch o`ymakorligi, sangtaroshlik, naqqoshlik, koshinkorlik namunalari bilan o`ziga xos ravishda bezatilgan .

Ulardagi betakror nagsh bezaklarini kuzatar ekanmiz, ijodkor bo`yoglar orgali shakllarni ganchalar nafis ifodalay olganidan xayratga tushamiz. SHuningdek, tarixiy Baktriya, Sugd, Xorazm, Shosh kabi hududlardan topilgan bezakli ashyolarning o`ta gadimiyligi ham , insoniyatning go`zallik olamiga ganchalar intig yashaganligidan dalolat beradi.

Tarixdan har bir davr naqqoshlik san`atining rivojiga o`zining salmogli hissasini go`shib, uning yanada rivojlanib, taraqqiy etishiga zamin yaratib kelgan.

Surxandaryodagi Fayoz – tepa (I-II asr). Dalvarzin-tepa (II-asr) . Xorazmdagi tuprog–gal`a (III-asr) devorlari ham turli rasm va nagshlar bilan bezatilganligi bizga ma`lum. VI – VIII asrlarga oid Afrosiyob va Varaxsha saroylarining devoriy suvrat goldiglari esa birmuncha yaxshi saglanib golgan. Ajodolarimiz bu kabi devoriy rasmlarda: insoniylik, baxt ona tabiatga cheksiz munabbat, shodlik, mehr va yovuzlik kabi sifatlarni rang va chiziglar yordamida unsuz tovushlar orgali ifodalashgan.

VIII asrning boshlarida O`rta Osiyoga islom madaniyatining kirib kelishi, badiiy bezak – naqqoshlik san`atining yanada rivojlanishiga sabab bo`ldi. Maxobatli rasmlardagi jonli mavjudotlar o`mini tabiat tasvirlari, o`simliksimon va geometrik elementlar ishtirokidagi nagsh namunalari egalladi. Arab yozuvlari o`zlashtirilib, bezakli (epigrafika) uslub paydo bo`ldi.

IX asrlarda ganchkorlik, yogoch o`ymakorligi, naqqoshlik, gisht terish, kitob bezagi san`atlari yanada rivojlandi. Buyuk allomalar, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Goshgariy va boshgalarning ilmiy, tibbiy, ma`naviy hamda gur`on oyatlari zarxal nagshlar bilan bezatildi. Naqqoshlikda turli shakllar, gul elementlari va rang tuslarining ramziy falsafiy ma`nolari kengrog ifodalana boshlandi:

Kvadrat – abadiylik, mustaxkamlik .

Guyosh – hayot ramzi.

Zirk guli (gulsafsar) osoyishtalik va uzog umr.

Olma – muxabbat ramzi.

Sher – mardlik,adolat va kuchlilik ramzi.

Xumo – baxt keltiruvchi gush.

Yashil rang – ona zamin.

Havo rang – musaffo osmon.

O`rta Osiyoga bostirib kelgan Chingizzon (XIII asr) go`shinlari madaniy hayotni birmuncha izdan chigardi.

Temur va Temuriylar davriga kelib esa ilmu-fan, madaniyat va san`at keskin rivojlandi. Ko`plab tarixiy inshoatlar gurilib ular koshinpazlik, unvonli serhasham yozuvlar va turli o`yma nagshlar bilan bezatildi.

Nusxa ko`chirish (xattotlik) kitobat (minatyura) san`atlari yanada rivoj topdi. Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod , Mahmud Muzahhib kabi ko`plab naqqosh – musavvirlar; Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy va ko`plab buyuk zotlarning asarlarini ajoyib tasvir va nagshlar bilan bezaganlar .

XVI-XVII asrlarda Buxorodagi Abdulazizzon madrasasi (XVI asr) Baland masjid (XVI asr) Xo`ja Zayniddin xonagosi (XVI asr) Samarganddagi Tillagori madrasasi (XVII asr) va Zarxal nagshlar (kundal texnikasi) bilan bezatildi. Bu usul “magzi soxta” deb ham yuritiladi.

Naqqoshlikda lojuvard, yashil , gizil, tilla hal bo`yog tuslarini o`zaro boglanishi asosidagi “turunj” namoyon, girix usullaridan tashkil topgan nagsh namunalari ko`plab ishlangan.

Naqqoshlik san`atida o`ziga xos nagsh makteblari shakllana boshlandi. Ko`plab xalg ustalari etishib chigib faoliyat ko`rsatdilar.

XX asr boshlarida naqqosh ustalar: Olimjon Qosimjonov, usta Sherali Xoji, Rauf Nazarov, ustazoda Yogubjon Raupov, Vakil va Sobir Isaevlar Toshkentdag`i Romanovlar saroyini, hozirgi xalg amaliy san`ati muzeyi binosini (sobig Polovtsev uyini) va boshga binolarni shargona nagsh namunalari bilan bezadilar. 1947 yilda gurib bitkazilgan O`zbekiston Davlat opera va balet katta teatri binosining bezak ishlarida usta Vakil va Sobir Isaevlar, Yogubjon Raupov, Olimjon Qosimjonov, Jalil Hakimovlar samarali mehnat gildilar. Teatr binosini 1966 yilda gayta ta`mirlash ishlarida ham mohir usta Jalil Hakimovning xizmatlari katta bo`ldi.

Yangi nagsh kompozitsiyalarini odatda naqqosh ustalar chizib beradilar. Ular xalg amaliy san`ati turlari uchun chiziluvchi nagshlarning kompozitsion tuzilishini , chizish, o`yish, tikish usullari va pardoz berish goidalarini yaxshi bilganlar. Naqqosh ustalar bir vagtning o`zida bir necha hunar turlarini ham egallab borganlar. Masalan: Toshkentlik pargori usta Olimjon Gosimjonov, naqqosh Jalil Hakimovlar yogoch o`ymakorligini, Xivalik Abdulla Boltaev naqqoshlik, koshinpazlik, misgarlik kabi hunar turlarida erkin ijod gila olganlar.

Handasiy nagsh kompozitsiyalari, girihiarni tuzuvchi ustalarni naqqoshlikda giriikkor, katta ustalar deb atashgan. Geometrik naqqoshlarni gumbaz mehrob va turli assimetrik shakllarda go`llab ishlash ancha murakkab ish sanaladi.

O`zbekistonda naqqoshlik san`atining o`ziga xos bir necha makteblari mavjud bo`lib, ular XX asrning o`rtalarida gayta shakllanib yanada rivojlandi. Toshkent naqqoshlik maktabi o`ziga xos uslubga ega. Bu uslubda ishlangan nagshlar rang tuslarining nozikligi, yashil havo rang hamda oltinsimon jigarrang koloritlarda ishlanishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, nagsh elementlarining xilma-xilligi pardoz usullarining ko`prog targil tortish texnikasi bilan bajarilishi o`ziga xosdir.


Toshkent naqqoshlik maktabining namoyondalari Sherali Hoji Hasanov, Vakil va Sobir Isayevlar, Olimjon Qosimjonov, Yogubjon Raupov, Jalil Hakimov, Toir To`xtaxo`jayev, Mahmud To`rayev, Komil Karimov va Anvar Ilxomovlardir.



Toshkent naqqoshlik maktabi

Fargona naqqoshlik maktabining uslubi tojik namunalariga o`xshab ketadi. Nagsh kompozitsiyalarida ortigcha shakl yasovchilarisiz, zamin bo`shliglari islimiy gul va novda shakllari bilan mohirona to`ldiriladi. Fargona nagshlariga to`grog, garama-garshi (kontrast) ranglar jilvasi ulugvorlik bagishlaydi. Gul va barg elementlarining pardozlari ko`prog edirma uslubida bajariladi. Fargona naqqoshlik maktabi hagida gap ketganda Go`gonlik naqqosh ustazodalar nomlarini faxr bilan tilga olish mumkin. Ular Norgo`zi Nurmatov, Saidmahmud Norgo`ziev, Saidahmad Mahmudovlardir. Mustagilligimizning ilk yillarida o`zining 80 yoshlik to`ylarini nishonlab, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi unvonini olgan Saidahmad Mahmudovning ko`plab shogirtlari bor.

Xorazm naqqoshlik maktabining ham o`ziga xos uslubi mavjud. Xorazm nagshlari ko`prog novda ishtirokidagi aylana spiralsimon murakkab ko`rinishdagi nagshlardan iborat. Xorazm nagshlarini turlanishida uch va to`rt xil rang tuslari ishtirok etib, nagsh zaminlari havorang-yashil novdalar og; rangda pardozi esa gora rangda bo`ladi.




Xorazmliq naqqoshlar. 1920 qil

Xorazm nagshlarida islimiy egiluvchan madohil shakllari ko`plab uchraydi. Xorazm naqqoshlik maktabi namoyondalari Abdulla Boltaev, Xo`janiyoz Saidniyozov, eshmurodov Sofoev, aka-uka Vafo va Bolta Mirzaevlar, Ro`zimat Masharipov va boshgalardir.

Buxoro naqqoshlik mактабининг исх услублари нағш композитијаларининг мукаммал ва јозибадорлиги, гирих о`симликсимон, аралаш нағш намуналарининг юргин рангларда ишланishi билан характерlidir. Buxoro нағшларida ко`прог на moyon нағш композитијалари шунингдек косамон, китоба мексроб шакли нағшларига хос намуналар ко`плаб ишланади.

Samargанд нағшлари Тошкент, Фарғона нағшларига о`хшаб ketади. Samargанд нағшларидан зангари-яшил ранг туслари ко`плаб go`llaniladi. Nagsh композитијаларидан о`симликсимон мурakkab гирих турлари алоҳида јозиба кашф etади. Samargанд нағш турларидан ўедирма-пардоуз усуллари кенг go`llaniladi. Bu наққошлик мактабнинг номойондalariga: уста Рахмон, уста Жамолиддин, уста Sharif, уста Аминjon, уста Mahmud va бoshgalar kiradi.



Samarqand naqqoshlik мактаби ijодидан намуналар

### **Tayanch tushunchalar:**

Sangtaroshlik, Shosh, Kosamon, Zamin, Epigrafika, Xandasiy нағш, Kontrast.

### **Nazarot savollar.**

- 1.Naqqoshlik сан`ати тарихи ва унинг ривожланishi ҳагида nimаларни bilasiz ?
- 2..Naqqoshlik мактаблари ва ularning namoyondalarini ayting.?
- 3.Kundal texnikasi nima?
- 4.Zamonaviy naqqosh ustalardan kимларни bilasiz ?

### **Foydanilgan adabiyotlar.**

1. Axloq va odobga oid hadis намуналари. - Toshkent: Fan, 1991.
2. Bulatov S.S. Ganchkorlik va amaliy сан`ат yog'och o'ymakorligiga oid adabiyotlarning izohli lug'at. - Toshkent: Mehnat, 1991.
3. G'ulomov S.S., Bulatov S.S. Sharqona "Usta-shogird" одоби. UzRO'MTV o'quv adabiyotlari, журнал ва byulletenlarni nashrga tayyorlash markazi, 2000.
4. S.S.Bulatov. O`zbek xalq amaliy сан`ати bezagi - T.: "Mexnat" 1991.

#### **IV-Mavzu .Badiiy naqqoshlikning o`ziga xosligi va estetik moxiyati. Terminlar to`grisida umumiy tushunchalar.**

*Reja;*

1. Naqqoshlik – mustagil san`at turi sifatida.
2. Nagsh turlari.
3. O`simliksimon va geometrik nagshlar ustida ishlash

*Naqqoshlik* – o`zbek xalg amaliy bezak san`atining eng jozibali va nafis to`rlaridan biridir! Binobarin xalg amaliy san`atining barcha turlarini nagsh elementlarisiz tasavvur etish giyin. Nagsh – gul, bezak degan ma`noni anglatib, amaliy san`at asarlariga chiroy bagishlaydi. Bunday bezak elementlari esa, tabiatda uchrovchi o`simlik dunyosi, xayvonlar tasviri va koinot jismlarining eng sodda ko`rinishlari orgali aks ettiriladi.

Naqqoshlik san`ati gadimdan insonning moddiy muxitini go`zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat gilib kelgan. Xalg ustalari tomonidan jilolangan me`moriy obidalar, turar joy va ro`zgor buyumlari go`zallikni idrok etishimiz, ma`naviyatimiz va o`zligimizni chugurrog anglashimiz borasida bebahodir.

Ota-bobolarimizning bizga goldirgan ma`naviy merosi cheksiz. SHulardan biri san`at asarlaridir. Xalg amaliy san`ati asarları nafagat bezakdorligi, chiroyli shakllari, gadimiyligi hamda chugur falsafiy, tarbiyaviy, ruhiy xususiyatlari bilan o`zining yuksak giymatiga ega.

Farzandlariga yoshlik choglaridan hunar o`rgatib kelgan xalgimiz o`zining an`analaridan, urf-odatlaridan, turli ma`naviy meroslaridan unumli foydalanib keladi.

Bugungi kunimizda ham xalgimizning an`analarini, usta va shogird asosida yoshlarimizga hunar o`rgatishga katta e`tibor berilmogda.

Aynigsa oliv ta`lim muassasalarini, turli san`at akademik litsey va kasb-xunar kollejlarda yoshlarning kasb-hunar faoliyati bilan shugullanishlari uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish, ularni mutaxassisliklar yo`nalishlari bo`yicha nazariy va amaliy bilimlarni berish uchun samarali mehnat gilinmogda. SHuningdek, buyuk ma`naviyatimizni tiklash va uni yanada yuksaltirish yo`lida ta`lim-tarbiya tizimini yuksaltirish muxim ahamiyatga egadir.

Naqqoshlik san`ati ham hunar, ham san`atdir. Bu va bu kabi san`at turlarini egallash yoshlarning badiiy madaniyatini, tafakkurini, dunyogarashi va estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Naqqoshlik san`ati asirlar davomida ajdodlarimiz tomonidan ko`z gorachigiday asrab-avaylab kelindi va kelinmogda. Hozirgi yosh avlod uni gabul gilib olarkan, o`z oldida turgan mas`uliyatni bir dagiga ham unutmasligi lozim.

Xozirgi kunda Respublikamizda ta`lim-tarbiyanin jaxon standartlari talab darajasida bo`lishi aloxida axamiyatga egadir.

“Xalg badiiy xunarmandchiligi va amaliy san`atining yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan go`llab-guvvatlash chora tadbirlari to`grisida”gi Prezidentining Farmoni bir necha muxim, dolzarb masalalarni o`z ichiga olishi bilan birgalikda

- ta`lim – tarbiya tizimini tubdan isloh gilish, uni zamon talabi darajasiga ko`tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini parpo gilish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

Xozirgi kunda Respublikamizda ta`lim-tarbiyanin jaxon standartlari talab darajasida bo`lishi aloxida axamiyatga egadir.

Bugungi kunimizda amaliy san`at ustalarining yangi avlodlarini tarbiyalash, ularning barkamollikka erishishlari yo`lida barcha sharoitlar mavjud.

Xalg amaliy san`atidan olib borilayotgan o`quv mashgulotlar bo`lajak muallimlarni har tomonlama etuk, jahon andozasiga javob bera oladigan mutaxassislar gilib tayyorlashga, golaversa maktab o`quvchilarini xozirgi zamon talab darajasiga javob bera oladigan gilib tarbiyalashda muhim o`rinni egallaydi. Shuningdek bu sohada yangi o`quv rejalar, dasturlar, leksiya kurslari, o`quv go`llanma va darsliklarni yaratish muhim ahamiyatni kasb etadi.

Etiboringizga xavola etilayotgan o`quv metodik go`llanma “Naqqoshlik” fani uchun chop etilgan dastur mazmunlari asosida yozildi. Go`llanmaning har bir mavzusi matni (foto va chizmalar) yozma ish variant namunalari, naqqoshlikka doir atamalar izohli lugati va adabiyotlar ro`yxati bilan birgalikda berilgan.



“Naqqoshlik” o`quv metodik go`llanmasining asosiy magsadi siz yoshlarni gadimiy va maftunkor naqqoshlik sirlaridan boxabar etib, ustoz va shogird milliy an`analarini davom etishiga, nagsh kompozitsiyalarini mustagil ravishda tuzish orgali ularni mos ravishda go`llay olish goidalarini o`rgatishga garatilgan.




### ***Eng sodda nagsh elementlarini chizish.***

Nagsh – o`zbek xalg amaliy bezak san`atining tarkibiy gismi bo`lib, ramziy ma`nolari, tabiiy shakl va ranglar joylashtirilishi bilan go`zal.

Insoniyat gadimdan turar joylarni, uy-ro`zgor buyumlari va boshga shu kabi amaliy san`at namunalarini bezashda, nafis nagsh tasvirlaridan keng foydalanib kelmogda. Shu gatori u o`z hayoti bilan boglig bo`lgan yon-atrofidagi barcha inshoat va jihozlarni ona tabiat go`zalligi bilan uygunlashuvi orzusida yashab, ijod giladi.

Xo`sh, nagshning o`zi nima? Uning ganday turlari mavjud? Nagsh elementlarini ganday hosil gilinadi?





Nagsh so`zi arabcha – tasvir, gul degan ma`noni anglatadi. U tabiatda uchrovchi o`simlik parranda, hayvonot dunyosi va turli geometrik shakllarning eng sodda ko`rinishlarda takrorlanib keluvchi tasviri ya`ni bezakdir.

O`zbek xalg amaliy san`atining barcha turlari, jumladan naqqoshlik, ganch va yogoch o`ymakorligi, kandakorlik kabilar uchun nagsh elementlarining chizilishi o`xshash ko`rinsada, bajarilishi, texnologiyasi va pardozlash usullari turlichadir. Masalan: Ganchkorlik va yogoch o`ymakorligida nagshlar o`yib, naqqoshlikda chizib, kashtachilikda choc yordamida, misgarlikda zarb bilan, zardo`zlikda gadab va shunga o`xshash usullar yordamida nagsh solinadi.



Nagshlar o`simliksimon geometrik, murakkab deb ataluvchi turlarga bo`linib ustalar tilida ko`pincha islimiy, girih va gulli girih (aralash) kabi iboralarda ham uchraydi.

O`simliksimon nagshlar asosan gul novda, kurtak, barg, guncha kabi elementlarning o`zaro ma`lum tartibda boglanib tuzilishidir. Islimiylar tabiatan novda elementlarining bir tomonlama harakatlanib o`suvchanligini anglatish bois yuguruvchi nomiga ham ega. Jumladan majnuntol, chirmovug kabi o`simlik elementlari aks ettirilgan nagshlarni kuzatar ekanmiz, ko`z ilgamas jimgimali novda yo`llari tabiatan bir tomonga xarakatlanib chizilganligini yaqqol sezamiz.

O`simliksimon nagshlar yakka (bir) va go`sh (ikki) bandli novda ko`rinishlarida ishlanadi. Ularga misol gilib: ruta xoshiya, raftor, namoyon, mehrob, turunj, munabbat va xokazo kabi nagsh namunalarini olish mumkin.

Girih nagshi chigal, tugun degan ma`noni anglatib, to`gri chiziglarning o`zaro kesishuvi natijasida geometrik shakllarni hosil giladi.

Girih nagshlari ham islimiy nagsh turlari singari ma`lum tagsim (rapport) bo`laklardan iborat bo`lib, alohida tuzilishlarga ega bo`ladi. Girih nagshlari panjara-to`sиг ma`nosini ham anglatib to`r kataklari yordamida tez va onson chiziladi. Panjara nagshlari aynigsa pargori uslubida, turli o`ymakorlik san`atlarida ham go`llaniladi.



Gulli girih deb ham ataluvchi murakkab nagshlar o`simliksimon va geometrik nagsh turlarining o`zaro birikishidan hosil bo`ladi.

Ma`lumki har bir nagsh namunasi o`ziga xos nagsh elementlarini yigindisidan iborat. Nagsh elementlariga asos gilinib, tabiatda uchrovchi o`simlik dunyosi, hayvonot olami va turli geometrik shakllarning eng sodda ko`rinishlaridagi "stillashtirilgan" holatlari olinadi. Bunda tanlangan shakl ko`rinishini nagsh kompozitsiyasi tarkibiga go`shishi mumkin bo`lgan bezak shakliga keltiriladi.

Nagshda elementlarning o`zaro birikib borishi, muttanosib boglanishlari nagshning butun bir yaxlitligini tashkil etadi.. Nagsh chizishni o`rganishda dastlab guyidagi shakllar chizib o`rganiladi:

- barglar (barg elementlarini chizish)
- gullar (gul elementlarini chizish)
- novdalar (novda elementlarini chizish)
- boglam va sirtmog (ularni elementlarini chizish)
- margula va kurtak (uning elementlarini chizish)
- madohil elementlarini chizish
- gajak va jingalak elementlarini chizish
- bofta va shkufta elementlarini chizish

Barglar islimiyl nagsh elementlari sirasiga kirganligi sababli nozik, nafis ko`rinishlarda tasvirlanadi. Naqqoshlar tol, anor, xurmo, bodom, sambit, xina atirgul, uzum va shu kabilar barglarini stilizatsiyalashtirib, nagsh kompozitsiyalarini tuzishda gadimdan foydalanib kelganlar. Barglar oddiy va murakkab turlarga bo`linadi: Oddiy barglar-bodom bargi, arra tishli va to`lginsimon barg ko`rinishlarida uchraydi.

Gullar-islimiy nagsh elementi bo`lib, nagshlarga targil pardoz berilganidan so`ng yanada ko`rk va xusn bagishlaydi. Gul elementlari asosan nagsh shakllarining markaziyl gismlariga joylashtiriladi. Gullarning ham behisob turlari mavjud bo`lib, o`ziga xos nomlar bilan ataladi. Gul turlariga oddiy va murakkab ko`rinishdagi oygul, lola, paxtagul, chinnigul, pistagul, ko`vachagul, karnaygul, safsargul, atirgul, nargizgul va boshga gul turlari kiradi.

Novda - o`simpliksimon nagsh elementi sirasiga kiradi. U gul, barg va guncha kabi boshga elementlarini o`zaro boglab biriktirib to`ldiradi. Namoyon ruta, morpech, munabbat turunj va turli murakkab nagsh namunalaridan novda elementlari yakka va go`sh bandlarda uchraydi.

Boglam va sirtmoglar islimiyl nagsh elementlari. Novda va ramka shakllariga xos boglovchi oddiy argon kurtak va sirtmog boglami turlarini eslatadi .

Tanab-nagsh namunalaridagi asosiy shakl yo`llarini yasaydi.Bunday shakl nomlari mehrob, modohil, bodom, galampir, gardish va shu kabilar bilan ataladi.

Tanob bafta, shkufta, boglam elementlari bilan boglanadi.

Margula elementi ayrim novda va tanob shakllarining tugallanishini bildiruvchi go`sh chizigli gajak, margula nagsh kompozitsiyalarida kurtak elementlari bilan birin-ketin gohida o`rindosh sifatida ham uchraydi.

Kurtak elementi asosan bodom, galampir, tirnog ko`rinishlariga ega. Margula va kurtak elementlari novda, tanob, yasovchi ko`rinishlarini boyitadi.

Madohil-islimiy nagsh elementi madohil lola, tumor, uchbarang ko`rinishlarini eslatuvchi shakllar misolida uchraydi. Madohil mehrob namoyon nagshlarining yugori gismlariga xos elementdir.

Gajak va jingalak-islimiy nagsh elementi. Tabiatda uchraydigan uzum, karnaygul, pechak o`t novdalarini stilizatsiyalashtirilgan holdagi ko`rinishlaridir. Gajak va jingalak elementlari namoyon, guldasta va islimiy nagsh birikmalarida uchraydi.

Bofta islimiy va murakkab nagshlar elementi. Nagshdagagi patnis tanob, mehrob, savat ko`rinishigagi ramkalarni yurak shaklidagi elementlari bilan boglaydi. Bafta nagshlarda boglovchi elementlar tarkibiga kiradi. Bofta islimiy ruta va girih hoshiya nagshlarining ham o`ziga xos elementlaridan biridir.

Sh

kufta – islimiy nagsh elementi, gisgacha shkift deb ham ataladi. Shkufta asosiy shakl yasovchi elementlarni kurtak-gajak ko`rinishlarida o`zaro boglaydi. Nagshlarda shkufta va bafta elementlari to`g` ranglarda bo`ladi.

Naqqosh tabiiy shakllarni stillashtirib – gayta ishlar ekan u element va rang tuslariga oid ramziylik falsafasini ham keng yoritib berishga intiladi.

“Ota-bobolarimiz gadimiy obidalarini nafis nagshlar bilan bezar ekanlar, zavg olish bilan bir gatorda ular orgali o`z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ustalar inson ruhiyatini juda chugur va har taraflama o`rganib, uylarini ajoyib nagshu nigorlar bilan bezaganlar.

Nagshlardagi mazmunlarni anglash uchun nagshning har bir elementi va ranglarini ramziy alifbosini o`rganish kerak.

Ramz nima o`zi?

Ramz arabcha “ishora gilmog” so`zidan olingan. Ramziylik olam va odam ruhiyati, tabiat, vogelik, hayot falsafasini jonli chiziglar, ranglar orgali tasvirlashdir.

Nagsh elementlarining ramziy ma`nolari.

Teng tomonli uchburchak-tik turgan holati hayotning boshlanishi. Teskari turgan holati esa hayotning oxirini bildiradi.

To`gri to`rtburchak – ishonch.

Romb – ayol, ya`ni yor ramzi serfarzandlik.

Yarim aylana – baxt.

Guyosh – hayot ramzi.

Bulut olov, - goliblik ramzi.

Bodom – baxt-igbol.

Barg – bahorgi uygonish.

Zirk guli (gulsafsar) – osoyishtalik va umr uzogligi.

Anor – ezgulik, to`gchilik.

Oygul – baxt-igbol ramzi.

Olma – munabbat ramzi.

Isirig – yomon ko`zdan asrash ramzi.

Atirgul – go`zallik ramzi.

Sher – mardlik,adolat va kuchlilik ramzi.

Bulbul – sadogat.

Xumo – baxt keltiruvchi gush.

Boshgush – baxtsizlik, vayronalik.

Balig – mashxurlik ramzi.

Og kabutar – tinchlik

### *Oddiy nagshlar.*

Oddiy nagsh namunalarini o`rganishda, o`zbek xalg ustalari gadimdan go`llab kelayotgan nagsh elementlarini yoddan chizish, stilizatsiya orgali yangi nagsh elementlarini hosil gilib ular ishtirokida kompozitsiyalar tuzish magsadga muvofigdir.

“Har bir insonning o`z ismi bo`lganidek, har bir nagshning o`ziga xos nomlari bo`ladi. Nagshning nomlanishi uning xarakterli o`rni bilan belgilanadi.

Har bir nagsh ma`lum gonuniyatlar asosida tuziladi va chiziladi. Nagshlarning o`ziga xos nomlari va ma`nosi bo`ladi.

Har ganday nagsh oddiy elementlarning ma`lum goya, xarakter va vazifasiga muvofig joylashtirilishi, o`zaro uygunligi va muttanosibligi bilan hosil bo`ladi. Bu gisgacha kompozitsiya (mujassamot) deyiladi”.

Shuningdek nagsh chizishni barcha gonuniyatlarini yaxshi o`zlashtirib borishda, mavjud yo`l ichidagi o`nta oddiy nagsh namunasini aslidek yoddan chizib o`rganish kerak bo`ladi.

Oddiydan murakkablashib boruvchi mavjud o`nta hoshiyasimon nagsh namunalarini tanigli naqqosh ustozlarimiz tomonidan tuzilib, nomlangan deyishadi. Aytishlaricha 1934 yili Toshkentda ochilgan Badiiy o`quv ishlab chigarish kombinatining naqqoshlik bo`limi o`gituvchisi usta Olimjon Gosimjonov va bir-oz keyinrog, Jalil Xakimovlar, boshlangich dars mashgulotlarni to`rtta nagsh namunasi yordamida o`rgatar ekanlar.

Ayrim taxminlarga ko`ra bu nagsh namunalarini yugorida nomlari zikr etilgan ustalarning o`zları yaratganlar. Keyinchalik usta Jalil Xakimovning, birinchi shogirdlaridan bo`lmish mohir pedagog naqqosh usta Mahmud To`raev oddiy nagsh namunalarining yana go`shimcha oltita nusxasini yaratib, nomlagan.

Mavjud o`nta oddiy nagsh namunalarini boshga o`ymakor ustalar, yogoch va ganch o`ymakorliklariga oid, o`yish jarayonlariga mos ravishda, go`sbandli nagsh holatlarida chizganlar. Oddiy nagsh namunalarining nomlanishi va chizilishi tartibi guyidagicha:

- “Bodom gul” (1 gul)
- “Yak raftor” (2 gul)
- “Bargli raftor” (3 gul)
- “Bargli islimli” (4 gul)
- “Aylana shukuftali islimiy” (5 gul)
- “Mehrob islimi” (6 gul)
- “Islimi bafta” (7 gul)
- “Go`sh mehrobli islimi” (8 gul)
- “Patnisgul islimi” (9 gul)
- “Islimi shkufta” (10 gul).

Biz dastlab oddiy nagsh namunalarini katak daftariga bosgichma-bosgich chizishni mashg gilishimiz kerak. Ma`lum tajribaga ega bo`lganimizdan so`ng, mazkur nagshlarni rasm daftariga ikki nusxada galamda va bo`yash uchun alohida tarzda chizamiz.



Oddiy va boshga nagshlarning mukammal tuzilishi jihatlariga nazar tashlasak, ulardagi shakl yasovchi asosiy yo`l harakatlarini yoki to`ldiruvchi gul, novda

elementlarining har gaysisi o`z holicha kompozitsion echimlardan iborat. Misol, “Go`s sh mehrobli islimi”. nagshda mehrob shaklimiz yakka bandli shakl yasovchi vazifasini o`taydi va gul novda, kurtak elementlari esa nagshning zaminini to`ldirib turadi. Mehrob shakli o`z holicha novda gul boglanishlari bilan alohida nagsh tasvirlarini anglatishi mumkin.

*Mashg. Oddiy nagsh namunalarini chizishga doir mashglar.* Yugorida aytib o`tilgan o`nta gulni galamda chizishni mashg gilamiz. Bu mashglarni bajarish uchun katak daftar yoki rasm daftar, gora galam, chizgich kerak bo`ladi. Nagsh o`lchamlariga ahamiyat bergen holda galamni engil, bosmasdan chizish kerak.

1 – gul. “Bodom guli” ni galamda katak daftarda guyidagi bosgichda chizamiz. Chizishda ritm va simmetriyaga rioya giling.

1 – bosgich. Ikki parallel chizig chizilib, ularning oraligi teng bo`laklarga bo`linadi. Katak - kvadratlarga diogonal o`tkaziladi. Bularning hammasi ingichka chiziglar asosida bajariladi.



2 – bosgich. Ikki kvadrat oraligiga yarim aylana chizib chigiladi.

3 – bosgich. Yarim aylana shakllari pastki tomonlarga ham ishkom ko`rinishiga chiziladi.

4 – bosgich. Ikkala bargning pastki va ustki tomonlaridan kurtaklar chiziladi. Qolgan 9 nagsh gullarini shu kabi bosgichlar asosida chizib oling. Nagshlarni bir necha marotaba takroran nafis va ravon chizib o`rganing.



### **Tayanch tushunchalar:**

1. Stilizatsiya , Qo`shband, Band, Shkufta,Ritm, Islimiyl,Pechak o`t,Morpech, Gardish.

### **Nazorat savollar:**

1. Oddiy nagsh namunalarining nomlarini ayting ?
2. Oddiy nagsh namunalarini chizish bosgichlarini ayting ?
3. “Islimi bofta” so`zining ma`nosi nima?
4. Nagsh va uning turlarini ayting ?
5. Nagsh elementlarining nomlanishini ayting ?
6. Ramziylik nima?
7. Nagsh elementlarining ramziy ma`nolarini ayting?

### **Foydanilgan adabiyotlar**

1. Axloq va odobga oid hadis namunalari. - Toshkent: Fan,1991.
2. Bulatov S.S. Ganchkorlik va amaliy san'at yog'och o'ymakorligiga oid adabiyotlarning izohli lug'at. - Toshkent: Mehnat, 1991.
3. Nabiiev M. Rangshunoslik. - Toshkent: O'qituvchi,1995.
4. Qurbanov T. Odobnama. - Toshkent: O'qituvchi,1991.
5. G'ulomov S.S., Bulatov S.S. Sharqona "Usta-shogird" odobi. UzRO'MTV o'quv adabiyotlari, jurnal va byulletenlarni nashrga tayyorlash markazi,2000.
- 6.S.S.Bulatov. O`zbek xalq amaliy san'ati bezagi - T.: "Mexnat" 1991.
- 7.[www.nbgt.intal.uz](http://www.nbgt.intal.uz)

## V-Mavzu .Rangshunoslik va bo`yoqlardan foydalanish texnologiyalari.

### Reja:

1. Rangshunoslik texnologiyasi
2. Ranglarning kishi ruhiyatiga ta`siri
3. Ranglarning naqqoshlikda tutgan o`rni.

Ranglarning kishi ruhiyatiga ta`siri o`ziga xosdir. Ranglarni tabiatda insonlarning o`zlari tanlaydilar. Rang tuslari orgali kishilarning xarakteri kayfiyati va boshga xususiyatlarini belgilash mumkin. Tabiatan issig rang tuslarini yogtiruvchi kishilar jo`shgin to`pori, giziqqon xarakter egalari sanalsa – sovug rang ixlosmandlari aksincha muloyim, bosig chehrali kishilardir. Ranglarning inson ruhiy olamiga ta`sirini ko`rib chigaylik:

Yashil rang tinchlantiradi.

Sarig rang tetiklashtiradi.

Gizil rang kayfiyatni ko`taradi.

To`g havo rang ishtaha ochadi.

Zargaldog rang e`tiborni tortadi.

*Ranglar mazmuni*

Yashil rang – ona tabiat ramzi.

Ko`k rang – moviy osmon.


Gizil rang – galaba, shodlik.

Sarig rang – mugaddaslik.

Gora rang – motam.

Zangori – oliv e`tigod.

Og rang – tozalik, baxt va omad ramzi.



Ranglar

Naqqoshlikda kompozitsiya gonuniyatlaridan tashgari uni bo`yashda go`llaniladigan bo`yog turlari, ularning o`ziga xos xususiyatlari, rang koloriti, hamohanglik va shu kabilar muhim ahamiyatga ega.

Xalg ustalari tomonidan yaratilgan amaliy san`at namunalarini kuzatar ekanmiz, ular biron-bir rang tuslari ta`siriga ya`ni rang kaloritiga bo`ysundirilganini ko`ramiz. Shunga asosan havorang, yashil rang, jigar rang va shu kabilar muhitiga xos nagsh kompozitsiyalari ishlanadi.

Mo`jaz bezatilgan buyumlardan tortib katta-katta bino va inshoatlar asosan rang va chizgilar jilosida nechoglik nafis va ulugvor ko`rinadi.


Har bir voha va naqqoshlik maktablarining o`ziga xos rang kaloritlari mavjud bo`lib, Xorazm naqqoshlari havo rang, Go`gon ustalari gizil-zangori, Toshkent naqqoshlari esa to`ti yoyi va och jigar rang tuslarida ijod giladilar.

Albatta naqqoshlik san`atida oddiy chiziglar mohiyatini rang tuslari ohib beradi. Nagshlarni bo`yashda zamin va shakl oraliglariga to`g rang, gul novda va boshga elementlariga och ranglar beriladi. Ranglash bosgichlarida ilig va issig ranglar aralash go`llanilmaydi. Aksincha, nagsh namunalarining umumiy talginlariga e`tibor beriladi. Ma`lumki, ilig ranglar tarkibiga: gizil, girmizi, gulnor, sarig, zargaldog ranglar kiradi. Bu kabi ranglar issig havo, guyosh taftini,sovug ranglarga esa salginlik, suv, muz holatini anglatuvchilar kiradi. YAshil ranglar ilig-issig ranglardir.


Atrof-muhitdagi narsalar tushayotgan yoruglik ta`siri ostida o`zlarining rang tuslarini tez-tez o`zgartirib turadi. Masalan, guyosh nuri yon tomondan yoritib turgan maysalarning rangi sargish-yashil ko`rinishda bo`lsa, xuddi shu maysaning soyada turganlari bir oz to`grog yashil rangda ko`rinadi. Naqqoshlikda ham ranglarning ana shu xususiyatlarini hisobga olgan holda ish ko`rish lozim bo`ladi. Agarda ishlanadigan nagsh yorugrog joyga go`yiladigan yoki ishlanadigan bo`lsa, rang tuslarini bir oz to`grog olish mumkin. Aksincha, bir oz yoruglik nurlari kamrog tushadigan erlarga joylashtiriladigan bo`lsa yorugrog ko`rinishdagi rang tuslaridan foydalaniladi.

Naqqoshlikda suv va moybo`yoglardan keng ko`lamda foydalaniladi. Bu esa o`z navbatida rangshunoslik borasida ham kerakli bilim va amaliy malakalarga ega bo`lishlari lozimligini tagozo etadi.

Tayyor nagsh namunalarini bo`yashda bir rangning bir necha hil tuslari go`llaniladi. Bunda og bo`yog asosiy o`rinni egallaydi. Akvarel bo`yoglari bilan gogozga ishlangan nagshlarni bo`yayotganda esa suv-rang tusini ochlashtiruvchi vosita sifatida katta ahamiyatga egadir.



Qo'shimcha ranglar



Qo'shimcha rangda hosil boladigan ranglar

Shuni esda tutish lozimki, ayrim bo`yoglarni bir-birlari bilan aralashtirishda ba`zi bir ehtiyyot choralarini ko`rish lozim bo`ladi. Chunki, to`g rang tusiga ega bo`lgan bo`yog tarkibiga boshga rang aralashtirilsa uning tusi ham to`glashadi. Bu esa o`z navbatida rang tusining tiniglik darajasiga ta`sir etadi. Aynigsa, moy bo`yoglarida ishlangan nagshlarning tuslari keyinchalik to`glashib, gorayib ketishga moyil bo`ladi. Agarda nagshlar uzog vagt saglash uchun mo`ljallangan bo`lsa ularni iloji boricha ochig rang tuslarida bo`yash tavsiya etiladi. Umuman olganda nagsh sirtiga iloji boricha guyosh nuri tushmaydigan bo`lishi lozim. SHuningdek, nam havo yoki suv tegishi nagshning uzog muddatga saglanishi uchun jiddiy to`sиг bo`lishi mumkin. Umuman olganda badiiy naqqoshlikda ana shu sharoitlarni hisobga olish kerak bo`ladi.

Badiiy naqqoshlikda guyidagi ranglar va ularning tuslaridan keng ko`lamda foydalilaniladi: Zangori ranglar va ularning tuslari (och zangori, zangori, to`g zangori, och havo rang, havo rang, to`g havo rang, moviy ko`k).

Sarig ranglar va ularning tuslari (och sarig, sarig, to`g sarig sargish, limonli sarig, kadmiyli sarig, sargish zargaldog). Gizil ranglar va ularning tuslari (och gizil, gizil, to`g gizil, och va to`g girmizi, girmizi, alvon rang, och va to`g zargaldog, zargaldog ranglar va boshgalar).

Yashil rang va ularning turlari (och va to`g yashil, yashil, sargish yashil, to`tyoyi (to`taki), zaynovi (chiroyli o`tkir rang yashil), zumrad rang, ko`kish yashil. Binafsha rang va ularaning tuslari (och va to`g binafsha, binafsha siyoh rang, ko`kish binafsha gizgish binafsha va shu kabilar). Jigar ranglar va ularning tuslari (och va to`g jigar rang, jigar rang, gizgish va sargish jigar rang, goramtir jigar rang va boshgalar). Gora rang va uning tuslari (och va to`g gora, gora och va to`g kul rang va shu kabilar).

Yugorida ko`rsatib o`tilgan ranglar va ularning tuslari ko`pincha badiiy nagsh koloritini belgilashda katta o`rinni egallaydi. Shunga ko`ra rang muhiti biror bir anig rang tusi koloritiga bo`ysundiriladi. Masalan jigar rang, havo rang, sargish yoki gizgish ranglar muhitida ishlangan nagsh kompozitsiyalari shular jumlasidandir.

### **Tayanch tushunchalar:**

1. Kolorit ,rang, Zangori, To`ti yoyi, Zargaldog, Moviy, Girmizi.

### **Nazorat savollar:**

1. Ranglarning kishi ruhiyatiga ta`siri hagida nimalarni bilasiz ?
2. Ranglar mazmunini ayting ?
3. Rang tuslarining gadimiy nomlarini ayting ?
4. Issig va sovug ranglarga misollar keltiring ?

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Axlog va odobga oid hadis namunalari.- Toshkent: Fan,1991.
2. Bulatov S.S. Ganchkorlik va amaliy san`at yogoch o`ymakorligiga oid adabiyotlarning izohli lugat.- Toshkent: Mehnat,1991.
3. Nabiev M. Rangshunoslik.- Toshkent: O`gituvchi,1995.
4. S.S., Bulatov S.S. Sharkona “Usta-shogird” odobi. O`zROO`MTV o`quv adabiyotlari, jurnal va byulletenlarni nashrga tayyorlash markazi,2000.
5. S.S.Bulatov. O`zbek xalq amaliy san`ati bezagi - T.: "Mexnat" 1991 .
6. www. n.b.g.t. intal.uz.

**VI.Mavzu: O`quv va tarbiya jarayonida badiiy bezak.  
Badiiy bezak san`ati fanining shakli va mazmuni. Badiiy bezak san`ati  
darslarini tashkil qilish.**

***Reja:***

1. Badiiy bezak ishlarining maqsad va vazifalari.
2. Badiiy bezak ishlarining boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Badiiy bezak ishlariga qo`yilgan talablar.

Inson uchun zarur bilimlar miqqosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig`indisini o`zlashtirish bilan cheklanib bo`lmaydi. Shuning uchun o`quvchilarga o`z bilimlarini mustaqil ravishda to`ldirib va boyitib borishni, o`zining diqqat-e`tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o`rgatish kerak. Bu vazifa o`quvchilarning badiiy bezash ishlarini ta`lim – tarbiya jarayoni bilan uzviy bog`liq holda kengaytirish va rivojlantirishni ham taqozo etadi.

Ma`lumki, bezak san`ati turlari ijodiy mehnat bilan omuxta bo`lib ketadi va shuning uchun o`quvchilarda ishga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi, ularni ma`naviy jihatdan boyitadi.

Bezak san`ati bugungi hayotimizning turli sohalarini, har xil voqealarni to`la qamrab olishi lozim. U davlatning tashqi va ichki siyosatini, xalqning mehnatdagi yutuqlarini, mamlakat tarixi, ilmiy, badiiy hayotidagi yangiliklarni, tabiat va boshqalarni ifodalashi kerak.

O`quvchi kunning ancha qismini maktabda o`tkazadi. O`quv yurtidagi butun muhit uni go`zallik qonunlari asosida yashashga, hayotdagi rang - barang holatlarni ko`ra bilishga o`rgatishi lozim.

O`quvchi o`quv yurti binosiga, uning yonidagi uchastkaga o`yin hamda sport maydonchalariga qarab, ulardagи go`zallikni his etishi, umuman o`quv dargohining qiyofasi unda o`zi bilim oladigan muhit haqida ijobiy tasavvur hosil qilishi lozim. Bunda puxta o`ylab, chiroqli qilib bezatilgan va alohida e`tibor bilan tutiladigan tabiat burchagi, did bilan ishlov berilgan yo`lka va gulzorlar, hovli, kiraverishdagi memorial taxta, koinotni zabit etish, mehnat, harbiy jasorat kabi mavzulardagi stendlar, binoning joylashishi tasvirlangan sxema va hokazolar katta yordam beradi. Mana shularning hammasida mazkur badiiy bezash uslubi ko`zga yaqqol tashlanib turishi shart.

Bezak san`atining binoni bezatishdagi asosiy yo`nalishlari o`quv xonalarini, sport va majlislar zallarini, koridorlarni bezash, ko`rgazmalar tashkil etish, maktab teatri uchun dekoratsiya ishlash, dekorativ – amaliy san`at buyumlari yasash, plakatlar chizish, turli axborot vositalarini tayyorlash va hokazolardan iboratdir.

Litsey, kollej, maktablarga kiraverishda unga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, dars jadvali, o`quvchilarning ijodiy ishlaridan namunalar ko`zga tashlanib turishi kerak. Imkonni bo`lsa, mehnatda ibrat ko`rsatgan ota-onalarning rasmlari qo`yilgan stendlarni tayyorlash ham maqsadga muvofikdir. Binoning har qaysi qavatini quyi, o`rta va yuqori sinflardagi o`quvchilarning yoshlariga mos qilib bezash ma`qul.

Quyi sinf o`quvchilari "Har doim bo`lsin quyosh!" shiori ostida rasmlar tanlovini o`tkazadilar. Rasmlar asfal'tga yoki tomosha zalining poliga to`shalgan linoleum ustiga yoki oyoqqa o`rnatilgan sinf taxtasiga chiziladi. Bu yoshdagagi bolalar "Nega shunday?", "Topa qoling!" kabi quvnoq o`yinlarni yoqtiradilar.



Yuqori sinf o`quvchilarining badiiy ijod sohasidagi ish doirasi kengayib boradi. Ular naqqoshlik, ganch va yog'och o`ymakorligi, mozaika, misgarlik va hokazolar bo'yicha har xil ishlarni bajarib dekorativ-amaliy san`atning qiyinroq va murakkabroq turlarini o`zlashtirib boradilar. Turli muammolarga doir munozaralar, adabiy kechalar, umummaktab bayramlarini o`tkazish, ko`rgazmalar tayyorlash, devoriy gazetalar chiqarish va badiiy bezash ishlarini amalga oshirish yuqori sinf o`quvchilaridan o`tkir did, ixtirochilik va bilimdonlikni talab qiladi.

Bolalarga har bir ishda ijodiy qatnashish imkonini berish, ularning faoliyatini shoshilib, haddan tashqari, ortiqcha talabchanlik bilan baholamaslik, ammo ishni sifatsiz bajaraverishlariga ham yo`l qo`ymaslik, shogirdlarning taassurotini o`stirish va ularga o`z taassurotlarini ifodalashning qulay shakllarini topishda ko`maklashish lozim. Mana shular kichik o`smirlar va barcha yoshdagи bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o`z kuchiga ishonchni tarbiyalashning muhim omillaridir. Bu ham asosiy vazifalarimizdan biridir. Binobarin, bolaning ta`lim – tarbiyaviy ishlar jarayonida faol qatnashuvi hozirgi hamma pedagogik yo`nalishlarning bosh mazmunidir.

Bu gaplar bolalarni badiiy bezash ishlariga jalb etishga ham bevosita taalluqlidir. Mana shu ishlar eng avvalo o`quvchilarning darsdan bo`sh vaqtlarini samarali tashkil etishda, ularni birgalashib ishlashga, o`z ishlarining oqibat natijasini tasavvur qilishga o`rgatishda ko`maklashadi. SHuningdek, badiiy bezash ishlari san`atining bir necha turlari sifatida o`sib kelayotgan insonga dunyoni tushuntirishda yordam beradi, uning yosh qalbiga oziq baxsh etadi, uni keng va turlicha fikrlashga odatlantiradi, xalqning ma`naviy madaniyatiga yaqinlashtiradi, eng muhimi,

mexnatga ijodkorlik bilan yondashishga o`rgatadi. SHuningdek, o`quvchilarda ahloqiy va fuqarolik faolligini, vatanparvarlik hissini tarkib toptiradi

Har qanday badiiy bezak ishlarini sifatli bajarish uchun unda ishlatiladigan turli materiallar, ish kurollari bilan atroflicha tanish bulishi va ularni ishga tayyorlash buyicha kunikma va malakaga ega bulishi kerak. Interer va fasadlarni buyash. Rang tanlash, ularni uz urnida kullash, psixologik ta'siriga aloxida e'tibor berish, yoruglik kaytarish xususiyatlarini nazarda tutish. Devorlarni buyash bilan tabiiy yoruglik tushishini xisobga olish, bir-biriga uzviy boglikdir. Bezashda dekorativ usimliklardan foydalanish. Interer va ekstererni badiiy bezashda amaliy bezak san'ati turlaridan foydalanish va ularni ishga tayyorlash. Bezak ishlarining turiga karab turli material va ish kuollaridan foydalaniladi. Grafik ishlar uchun materiallar: Kalamtasvir uchun (grafit kamlar, kumir, sangina, sous, pastel, tush, flomaster, uchirgich);

Rangtasvir uchun (akovarel, guash, tempera, moybuyoq); Taykaltaroshlik uchun (yogoch tosh, temir, loy va x.k.) ishlatiladi.

**Buyoqlar.** Buyoq moddalari va tuldiruvchilar (tabiiy va sun'iy buyoqlar). Buyoq turlari (suvli, moyli, emalli, kazeln, emulsion va boshkalar).

**Boglovchilar.** Yelimlar. Laklar. Yordamchi materiallar. Yumshoq materiallar (qog'oz, karton, mato, sun'iy teri, penoplast). Kattik materiallar. Plastik materiallar. Kukunsimon materiallar.

**Ish kurollari.** Plakat perolari. Turli kistlar. Kistlar ulchamidan tashkari yassi, dumalok turlariga bulinadi. Shuningdek tayyorlangan materialiga karab yumshok va kattik turlarga bulinadi. Turli valiklar, kamlar, flomaster, ruchka, trafaretlar. Normograf, skalpel, proektorlar. Purkagichlar. Penoplast kesuvchi moslama.

Yuqorida sanab utilgan materialarning ba'zilari to`grisida ma'lumotlar berib o`tamiz.

**Qogozlar:** Badiiy bezash ishlarida qog'ozning V, F, A, O turlari kullaniladi. V – yuqori sifatli qog'oz bulib, unga uzok muddat saklanadigan ishlar bajariladi (masalan: badiiy kurgazma ishlari);  
F – tush va guash bilan ishlashga muljallangan qog'oz;  
A – suv buyoqlar bilan ishlashga muljallangan qog'oz;  
O – ommaviy ishlar uchun tayyorlangan qog'oz;  
Kattik uchirgich maydalangan shisha kukuniga, faktis suyukligi aralashtirib tayyorlanadi.

Plakat perolari, «redis» perolari, maxsus chizma perolari, shisha naychalar (normograf).

**Tushlar.** Badiiy bezash ishlarida eng kup ishlatiladigan materiallar har xil rangli (suvli va moyli) buyoqlardir. Ulardan qog'ozga, taxtaga, fanerga, temir va tunukaga, devorga, matoga va xokazolarga yozish hamda tasvirlar tushirishda foydalaniladi.

Akvarel buyoqlari yelimli buyoqlar turkumiga kirib, uni suv bilan eritib ishlatiladi. Guash ham suvda eriydigan buyoq bulib, uning asosiy tarkibiy boglovchi moddasi dekstrin va glitserindir. Bezak ishlarida keng kullaniladi. Emulsiyalı buyoqlar asosan gruntlashda ishlatiladi.

Tempera buyoqlari, moy bo`yoklar. Interer va ekstererdagi uzok vakt turadigan vitraj, panno va xokazolarni badiiy bezashda emulsiyalı buyoqlardan tashkari moy

buyoqlardan ham foydalaniladi. Ularga lak, skinidar, atseton va boshka turli erituvchi suyukliklardan foydalaniladi.

Badiiy bezash ishlarning mazmuni, maqsad va vazifasi. Inson uchun zarur bilishlari miqyosida tobora kengayib, borayotgan xozirgi sharoitda o`quvchilarga o`z bilimlarini mustaqil ravishda to`ldirib va boyitib borishni o`zining diqqat e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarining eng muximlariga qaratishni o`rgatish kerak. Bu vazifani ta'lim tarbiya jarayon bilan o`zviy boglik xolda o`quvchilarning badiiy bezak ishlarini rivojlantirishni takozo etadi. Dekorativ san'atning ko`p turlari mexnat bilan omuxta bo`lib ketadi va o`quvchilardan ishga ijodiy munosabatini tarkib toptiradi.

Ular ma'naviy jixatdan boyitadi. Bu sohada ijod xayotning turli sohalarini, har xil voqealarni tematik jixatdan to`la qamrab olishi lozim.

Dekorativ san'atning maktab binosini bezatishga xizmat qiladigan asosiy yo`nalishlari-o`quv xonalarini, sport va majlislar zallarini, koridorlarni bezash, ko`rgazmalar tashqil qilish, dekorativ-amaliy san'at namunalarini yasash, plakatlar chizish, turli axborot vositalarini tayyorlash va xakozolardan iboratdir.

O`quvchi maktab binosiga qarab, uning yonidagi uchstka, uyin va sport maydonchalariga qarab, ulardagi go`zallikni xis qilishi, maktab qiyofasi unda o`zi bilan oladigan muxit xaqida ijobiy tasavvur xosil qilishi lozim. Bunda did bilan ishlangan yo'lak va gulzorlar, kiraverishda unga (maktabga) nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, har xil temalardagi stendlar, maktab binosining joylashishi tasvirlangan sxema va boshqalar katta yordam beradi. Maktab binosining har bir qavatida kuyi urta va yukori.

Bunda o`quvchilarning jamoatchilik faoliyatiga xos xususiyatlarining ham nazarda tutish zarur.

O`quvchi kunning ancha qismini maktabda o`tkazadi. Maktabdag'i butun muxit uni go`zallik konunlari asosida yashashga, xayotdagi rang barang xolatlarni ko`ra bilishga o`rgatish kerak. Badiiy bezash ishlari san'atning bir necha turlari sifatida o'sib kelayotgan insonga dunyoni tushunishda yordam beradi, uning yosh qalbiga oziq baxsh etadi, uni keng va turlicha fikrlashga odatlantiradi, xalqning ma'naviy madaniyatiga yaqinlashtiradi, muximi mexnatga ijodkorlik bilan yondoshishga urgatadi. Xalqimizning mexnatdagi yutuklari, yurtimizning tarixiy o`tmishi, ilmiy va badiiy xayotidagi, ijtimoiy xayotdagi yangiliklar, maktabdag'i har bir mashgulot, o`quvchilar xayotidagi har bir vokea dekorativ ijod uchun tema bo'lishi, badiiy bezash vositalari yordamida yorkin ifodalanishi va o`z navbatida fantaziyani ustiradi.

Maktabdag'i badiiy bezash ishlariga o`quvchilarni jalb etish muxim masaladir. Bu ish eng avvalo o`quvchilarning darsdan bush vaktlarini samarali tashqil etishda, ularni birgalashib ishslashga o`z ishlarning natijasini tasavvur qilishga urgatishda katta yordam beradi. Kuyi sinf o`quvchilariga ota-onalari va murabbiylari uchun tabriknomalar, har xil ko`rgazmalar, konkurslar tashqil etish ularning ijodiy kobiliyatini ustirishga yordam beradi.

Yuqori sinf o`quvchilarining badiiy ijod sohasidagi ish doirasi kengayib boradi. Ular maktab uchun nakkoshlik, ganch va yog'och uymakorligi, mozeika, misgarlik va hakozolar buyicha har xil ishlarni bajarib dekorativ-amaliy san'atning kengroq va murakkabroq turlarini o`zlashtirib boradilar. Maktabda badiiy bezak ishlari yukori

sinflardagi o`quvchilar bilan olib boriladigan goyaviy-tarbiyaviy ishning eng muxim maksadlarini amalga oshirishga, bolalarda ijtimoiy aktivlikni, ongi, intizomni, madaniy xulk shakllantirishga, estetik bilimlar doirasini kengaytirishga, badiiy kobiliyatni ustirishga xizmat qilishi kerak.

Ilg`or maktablar tajribasidan kurinadiki, maktabdagi tabiiy bezash ishlarida stendlar va stendli ko`rgazmalar tayyorlash eng katta o`rin tutadi. Stendga juda ko`p va har xil axborotlar sigishi sababli u maktab binosini va uning territoriyasini bezashda eng operativ element xisoblanadi. Stendli ko`rgazmalarning mavzulari va ma'suliyati turli tumandir.

Har qanday metodik vazifa singari badiiy bezash ishlarini ham profissional aniqlikka va ijodiy yondoshishga asoslanishi kerak. Professional aniqlik o`quvchining badiiy izlanishlarini tugri va konstruktiv yo`nalishiga solsa, ijodiy yondoshish badiiy xulosalar chiqarishga olib boradi.

Maktabda tabiiy bezak ishlarini tobora takomillashtirib borish estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo`lib, o`quvchilarning rassom-pedagog raxbarligida maktab muxitini qayta kurishni kengaytirishda ijodiy aktivlik kursatishlari yaanada muximdir.

San'at - qabul qilingan umumiyligi ma'nosi jihatidan ijodkor odam mahorati demakdir.

Byust - kishining belidan yuqorisining tasviridir. Dekorativ san'at - odamlar yashaydigan va ishlaydigan moddiy muxitni yaratadi, kishilarning amaliy extiyojlari va talablarini qondiradi, foydali narsani go`zallik bilan moxirona kushib tasvirlash.

Badiiy did - tevarak-atrofdagi olamni uning kishida ma'lum bir ruxiy tuyogu paydo etuvchi go`zalligi, yuksakligi e'tibori bilan idrok etish va baxolash kobiliyatidir.

Qobiliyat - kishining o'z insoniy mexnati va kuchini erkin namoyon qila biladigan mexnati samarasi.

### ***Tayanch tushunchalar***

San'at , Byust, Badiiy did, Qobiliyat, Dekorativ, Badiiy bezash, Bezak san`atining binoni.

### **Nazorat savolari**

1. Badiiy bezash ishlarining maqsad va vazifalari nimalardan iborat ?
2. Badiiy bezash ishlarining qanday asosiy yo`nalishlari mavjud ?
3. Maktabda badiiy bezash ishlarini takomillashtirishning qanday ahamiyati bor ?

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

:

1. Solovyev S.A. Shrift i dekorativnoye oformleniye.
2. Qodirxujayev F. Maktabda badiiy bezash ishlari.
3. Xvorostov A.S. Dekorativno-prikladnoye iskusstvo v shkole.
4. S.S.Bulatov. O`zbek xalq amaliy san'ati bezagi - T.: "Mexnat" 1991.

## **VII. Mavzu. Dekorativ san`at printsiplari va vazifalari. Badiiy bezak san`ati fanida rang va kompozitsiya.**

### **Reja**

1. Badiiy bezak ishlarining turlari
2. Badiiy bezak ishlarining kompozitsiyasi.
3. Rang muhiti to`g'risida tushuncha, rangshunoslik elementlari.
4. Rangning psixologik va fizik xususiyatlari.
5. Badiiy bezashda rangning tutgan o`rni.

Badiiy bezash ishlari yuqori sinflardagi o`quvchilar bilan olib boriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy ishning eng muhim maqsadlarini amalga oshrishga, ya`ni o`g'il va qizlarda dunyoqarash asoslarini, ijtimoiy faollikni, ongni intizomni, madaniy xulq-atvorni tarkib toptirishga, xuquqiy bilimlarni, mehnatga ijtimoiy mulkka munosabatni, kasb tanlashga intilishni shakllantirishga, politexnik va estetik bilimlar doirasini kengaytirishga, badiiy qobiliyatni o`stirishga xizmat qilish kerak.

Yuqori sind o`quvchilari badiiy-amaliy ijodining o`ziga xos xususiyati turmush tarzi, normalarining butun kompleksini, o`quv yurtining va birinchi galda, yuqori sinflar qiyofasini ishorali badiiy yo`sinda gavdalantirishdan iborat. Bunda bino umuman yoshlarga mos optimistik, zavqli hissiyotni, ularning axloqiy faolligini aks ettiradigan ruhda bezatilishi va ana shu ruh yuqori sinflar o`qiydigan qavatga kiraverishdayoq his etilishi muhim.

Dekorativ san`at vositalari orqali mana ma`naviy – ma`rifiy kechalarning har biri uchun kerakli muhit yaratilishi kecha mavzusi, uning mazmuni murakkabligidan qat`i nazar, o`quvchi uni chuqur etishida katta yordam beradi.

Har qanday metodik vazifa singari badiiy bezash ishlari ham professional aniqlikka va ijodiy yondashishni talab etadi. Professional o`qituvchi o`quvchining badiiy izlanishlarini to`g'ri va konstruktiv yo`nalishga solib, ijodiy yondashish, etuk badiiy xulosalar chiqarishga olib boradi.

Badiiy bezash ishlarini tobora takomillashtirib borish estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo`lib, o`quvchilarning rassom-pedagog rahbarligidagi o`quv yurti muhitini qayta qurish, kengaytirishda ijodiy faollik ko`rsatishlari nihoyatda muhimdir.

**Kompozitsiya.** Tavsviri san`atning barcha turlari kabi badiiy bezash ishlari ham kompozitsiyaning umumiyl qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu ishlar bezakchi rassomdan etarlicha bilim va malakalarni talab qilishi bilan birga doim kompozitsiya masalalarini diqqat markazida tutishni taqazo etadi.

Kompozitsiya lotincha to`qish, tuzish, joylashtirish, alohida qismlarni butun qilib birlashtirishni anglatadi.

Badiiy bezash san`atida bajarilayotgan ishlarning ta`sirchanligini oshirish maqsadida ba`zan kompozitsiya qoidalarini ma`lum darajada buzish ham mumkin. Ko`pincha badiiy bezak ishlarida qo`llanayotgan yangi, ilgari ishlatilmagan materiallardan foydalanishda ma`lum originallikka erishish uchun shunday qilinadi.

Badiiy bezak ishlarida kompozitsiyaning asosan uchta: tekis, hajmli, kenglik va chuqurlikka ega bo`lgan turlari qo`llanadi. Bularning barchasi u yoki bu g`oyani amalga oshirishda qandaydir bir umumiyl sifat va belgilarga ega bo`ladi.

Frontal kompozitsiya ikkita koordinatalar bo`yicha frontal tasvirni tashkil etish demakdir. Frontal kompozitsiyaning xarakterli xususiyati unda hajmi elementlarni ishlatishtirish cheklanganligi va shu bilan bir paytda, uning o`lchovlarini kattalashtirish imkoniyatlari ortib borishidadir. SHuning uchun ayrim rel`efsimon tasvirlar (masalan, kandakorlik, yog'och va ganch o`ymakorligi va hokazolar) plastika qonuniyatlari asosida qurilsa ham, tekis kompozitsiyalar turiga kiradi.

Badiiy bezash ishlarining ko`p qismi, masalan, ko`rgazmali qurollar, devoriy gazetalar, mavzutik stendlar, taklifnoma, mavzutik al`bom va hokazolar frontal kompozitsiya asosida bajariladi.

Kompozitsiyaning qurilishi ma`lum ob`ektning vazifasi va mazmuni, undan ko`zlangan maqsadga bog`liq bo`ladi. Kompozitsiyalarning asosiy sxemalari quyidagilardan iborat:

**Gorizontal kompozitsiya.** Bunda kompozitsiya elementlari gorizontal yuzaga joylashtiriladi, masalan, dala, shahar panoramasi va boshqalar.

**Vertikal kompozitsiya** faol, dinamik kompozitsiya bo`lib, yuqoriga o`sish, parvoz tasavvurini hosil qiladi; uning detallari asosan tik chiziq bo`yicha joylashadi.

**Diagonal kompozitsiyaning** qurilishi dinamik va shiddatli sxemalarga asoslanadi.

**Uchburchak yoki piramidal kompozitsiyada** turg'un osoyishta holatga tayanipladi. Surat yuzasining pastki qismi piramidaning negizi hisoblanadi.

Badiiy bezash san`atida frontal kompozitsiyalarning muhim xususiyatlaridan biri ularning yupqa yuza tarzida ijro etilishidir. "Frontal kompozitsiya" atamasi frantsuzcha "frontale" yassi, ro`paradagi degan so`zdan kelib chiqqan.

Frontal kompozitsiya boshqa turdag'i kompozitsiyalardan hajmnii, masofa va kenglikni berishi bilan farqlanadi. Bu ikki o`lchamning birligi butun kompozitsiyani yaxlit ko`rishga imkon yaratadi. Real buyumlarning tasviri asar yuzasida shartli ravishda tasvirlanadi.

Frontal kompozitsiyaning tomoshabinga ta`siri bir qancha omillarga bog`liq. Ulardan biri kompozitsiya joylashgan kenglikning xususiyatlaridir.

Kenglik to`silgan bo`lishi mumkin. Bularga o`quv binosi, o`qituvchilar xonasi va boshqalar kiradi. Xuddi shu kompozitsiyaning o`zi ochiq joyda, binodan tashqarida, mакtab sahnida, ko`chada boshqacha badiiy taassurot paydo qiladi.

Bino inter`yeridagi frontal kompozitsiyalarning taassuroti, avvalo, binoning hajmi va shakliga bog`liqdir. Bundan tashqari, ular har qanday o`quv yurti binosida ko`p uchraydigan turli hajmdagi jihozlar, masalan, mebel, qandillar, turli uskunalar, asboblar va boshqalar bilan o`zaro birlikda ta`sir ko`rsatadi. SHuningdek, binoning yorug'lik va rang darajasi, xatto undagi harorat me`yori va inter`yerning akustik xislatlari ham katta rol' o`ynaydi. Frontal ob`ektlarning ba`zi turlari, masalan, mavzutik al`bomlar, tabriknomalar, yorliq va boshqalar ularni saqlashning munosib darajada uyushtirilishini talab etadi.

O`quv yurtidagi badiiy bezash ishlarining asosi bo`lgan inter`yerlarni yoritish masalalariga o`zaro uzviy bog`liq qarash lozim. Inson ko`zi sirtlardagi yorqinlik va ranglarni shu sirtlarga tushayotgan yorug'likning qaytishi natijasida idrok qiladi. Sirtlarning yorqinligi, birinchidan, ularni qanday rangli yorug'lik nurlari bilan yoritilganiga, ikkinchidan, shu sirt unga tushayotgan nurlarni qanday aks ettirishiga

bog'liq. Kunduzgi yorug'likda ranglar va ularning tuslari yaxshi ko`rinsa, kam yoritilgan joylarda ranglar to`qnashadi va bir-biridan farqlanishi qiyinlashadi.

Ranglar spektrida mavjud bo`lgan barcha ranglarni uchta asosiy ko`rsatkich bo`yicha xarakterlash qabul qilingan:

1. Rang qaytarish koeffitsienti o`lchanadigan yorqinligi (sirtga tushayotgan yorug'lik va sirdan qaytuvchi yorug'lik nisbatlari) bilan.

2. Rang to`lqinidagi aynan o`sha rangning o`zi bilan.

3. Rangning to`yinganligi va tozaligi (rangning ranglar spektridagi boshqa ranglarga nisbat miqdori) bilan.

O`quv yurti inter'yeridagi rang va yoritilish masalasida eng avvalo ko`rish uchun optimal sharoit yaratish talablaridan kelib chiqish lozim. Yorug'lik va ranglar dars samaradorligiga, ko`rish uchun qulaylik darajasiga, o`quvchilar va o`qituvchilarning umumiy salomatligiga bevosita ta`sir ko`rsatadi.

Ish xonalari: sinflar, laboratoriylar, ustaxonalar, kutubxonalar va umuman ko`zga hamda diqqatga zo`r keladigan joylarda yorug'lik va rangga mehnatni, hissiyot va kayfiyatni yaxshilash hamda tez charchashning oldini olish vositasi sifatida qarash kerak.

Rangning psixologik vaziyatlari turli ranglar va rang birikmalarining kishilardagi hissiy holatlarga ta`sir etish qobiliyatidan kelib chiqib yaratiladi. Garchi rangni idrok qilishda kishining shaxsiy xususiyatlariga, hayotiy tajribasiga bog'liq juda ko`p sub`ektivlik mavjud bo`lsa-da, mutaxassislar rang kishiga ta`sir ko`rsatishining qator umumiy xususiyatlarini ifodalaydilar<sup>1</sup>. Tadqiqotlardan ma`lum bo`lishicha, xona va inter'yerlarni jihozlash, ommaviy tadbirlar: munozara, miting, tantanali marosim va kechalar o`tkaziladigan joylarni bezash uchun nurni fil'trlaydigan rangli yoritkichlar va applikatsiyalardan foydalanish kerakli kayfiyatni vujudga keltirishda katta rol' o`ynaydi. Buning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, munozaralarda sariq, to`q sariq, yashil, och jigar rang yoritkichlar yordamida qo`shimcha ishonchlilik, oshkoraliq vaziyati, kechalarda och tusli qizil, sariq, havo rang yoritkichlar orqali ko`tarinkilik kayfiyati, tantanali mitinglarda sariq, ko`k, to`q sariq, yashil rangli yoritkichlar bilan jiddiylik, batartiblik vaziyati vujudga keltiriladi.

Dam olish xonalaridagi rang va yorug'lik o`quvchilar va o`qituvchilarning ishdan va o`qishdan bo`sh vaqtlarida yaxshiroq hordiq chiqarishlari uchun qulay sharoit yaratadigan bo`lishi lozim.

Zamonaviy maktab inter'yerini badiiy bezatishda uning yoritilganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Inter'yerni yoritishda tabiiy yorug'lik manbaidan to`g'ri, oqilona oydalananish ancha murakkab ishdir. Bunda, birinchidan, xonalarning yorug'lik tushadigan tomonini hisobga olish zarur. Masalan, tasviriy san`at, bichish-tikish mashg'ulotlari uchun ajratilgan xonalarga tabiiy yorug'lik manbai chap tomonidan tushishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, aynan shunday yorug'likda ranglarning nozik tomonlarini ilg'ab olish uchun qulay sharoit tug'iladi. Shuni ham ta`kidlash lozimki, havo bulutli paytda bichish-tikish xonasida shug'ullanayotgan o`quvchilar qora matodagi qirqqa yaqin rang tuslarini farqlay olishlari mumkin. Agar havo charaqlab

turgan bo`lsa, nurlar ko`kimir tus oladi, bu esa ranglarni taqqoslash imkonini pasaytiradi.

Ikkinchidan, sinf xonasiga yorug'likning tushishi hajmini aniqlashda muayyan sharoitlarni hisobga olish lozim. Yorug'lik tushadigan deraza qancha katta bo`lsa, tushayotgan yorug'lik hajmi shuncha ko`p bo`ladi. Lekin bu derazaning kattaligi shimoliy hududlarda sinf xonasini isitishni qiyinlashtirsa, janub tomonlarda xonalar haddan tashqari isib ketishiga sabab bo`ladi.

Shuning uchun me`morchilikda tabiiy yoritilganlik koeffitsienti normallashtiriladi. Me`morchilikning vazifasi barcha hollar uchun optimal variant topish, xonalarini yorug'lik bilan bir tekis ta`minlash choralarini qo`llashdir. Uning ixtiyorida turli sun`iy yoritish manbalari ham bo`ladi.

O`quv ustaxonalarini yoritishda ko`proq yuqorida sun`iy yorug'lik berish usuli ko`llaniladi. Bu usul nurlarni bir xil yo`llab, to`g`ri soya hosil qiladi.

Yorug'lik gigienasi juda zarur komponent ekanini doimo yodda tutish lozim. Shifikorlar to`g`ri yoritilgan xonadagi muayyan sharoit ish unumdoorligiga, o`qitish sifatiga, o`quvchilarning salomatligiga ijobjiy ta`sir ko`rsatishini aniqlaganlar.

Yoritish qoidalari uncha ko`p emas va ularga amal qilish aytarli qiyinchilik tug'dirmaydi. Birinchidan, sinf xonasining umumiy yoritilganlik darajasi (stol lampasi yoki boshqa turdag'i manba bo`lganda ham) etarli bo`lishi kerak.

Ikkinchidan, yoritish manbaini to`g`ri joylashtirish kerak, ya`ni u chap tomondan tushishi maqsadga muvofiqdir. YOrug'lik lampasidan ko`zga to`g`ridan - to`g`ri yorug'lik tushmasligi, yorug' bilan soya, yoritilgan sirtlar bilan yoritilmagan sirtlar o`rtasidagi kontrast juda keskin bo`lmasligi, shuningdek, partalar ustida bir necha yorug'lik manbaidan buyumlarning soyalari tushishiga yo`l qo`ymaslik kerak.

Mashg'ulotlarning 3-4 – soatlariga borib imkon bo`lsa, xonalarning yoritilganlik darajasini oshirish o`quvchilar ish qobiliyatini yaxshilaydi. Agar yoz paytlarida respublikamiz maktablarida bu masala tabiiy yorug'lik ortishi hisobiga hal etilsa, qish kunlari bu masalaga alohida e`tibor berish lozim.

Atrofdagi buyumlarga soya tushiradigan yorug'lik manbai ulardag'i ranglarni idrok etishni qiyinlashtiradi. Tasviriy san`at xonasi, kartinalar galereyasi tashkil etilgan joylarda texnik tavsiyalarga muvofiq keladigan yoritish vositalarini o`rnatish zarur.

Xonalarning yoritilish darajasi normadan kam bo`lsa, ko`z juda qiynalib ishlaydi. Bu faqat ko`rish apparatini emas, balki butun organizmni charchatadi. Bunday sharoitda surunkasiga shug'ullanish esa ko`zning kasallanishiga ham olib keladi.

Yoritilish darajasi o`quvchilarning ko`rish faoliyatigagina emas, balki psixik holatlariga ham ta`sir qiladi.

Ko`rish maydonidagi yorug'likning nisbatlariga rioya qilish ko`rish uchun juda muhimdir.

Inson ko`zi turli darajadagi yoritilganlikka moslashishi mumkin. Raqamlar bilan hisoblaganda sezilarli darajada bo`lsa-da, ko`rish qobiliyati yoritilganlik darajasi juda yuqori bo`lgan sharoitga ham, juda past bo`lgan sharoitga ham ko`nikadi.

Yoritilganlik darjasini tez - tez o`zgarib tursa, ko`z ham tez charchaydi. Sababi ko`z har bir o`zgarishga moslashishi kerak. Ko`nikma jarayoni tez-tez takrorlanib turishi ko`zning toliqishiga olib keladi. Shuningdek, ko`rish maydoni qamrab olgan sirtlarning yorqinligidagi farqlar ham ko`zni toliqtirib qo`yadi. Shuning uchun ham taxta, devorlar, stol va pollarning rangi qat`iy reglamentlashtirilgan bo`lishi kerak.

Ma`lumki, yorug'lik hamma ranglar gammagini vujudga keltiradi. Rang quyosh nurlari yoki yoritish manbalarisiz hosil bo`lmaydi.

Hamma ranglar axromatik (oqdan qoragacha) va xromatik (spektr ranglari) ranglarga bo`linadi.

"Rangning yorug'ligi (yoki yorqinligi), - deydi E.S. Xmelevskaya, - uning oqqa yaqinlik darajasidir. Qizil va pushti bir xil tusdagi va yorug'ligi har xil ranglar bunga misol bo`la oladi"<sup>1</sup>.

Ranglar tabiatini ilmiy asoslash jahonning ko`pgina olimlarida qiziqish uyg'otgan. Jumladan, Isaak N'yuton yorug'lik sinib o`tib, rang deb hisoblangan nazariyani inkor etib, uning uchburchak shaffof prizmadan o`tib, turli rangli nurlarga aylanishini tajribada ko`rsatib berdi.

Inter'yerlarni bo`yashda bo`yoqlar rangining ta`sirini albatta hisobga olish kerak. Tibbiyotda ranglar kishining organizmiga ta`sir qilish jarayoni kompleks tarzda kechishini, ya`ni barcha sezgi organlarini qamrab olishini isbotlangan. Odam organizmi rang va yorug'likning ozgina o`zgarishini ham sezadi.

Ayrim ranglarning spetsifikasi haroratni, kattalikni, og'irlilikni va masofani psixologik o`zgarishiga olib keladi.

Och ranglarga bo`yalgan sirtlar to`q ranglarga nisbatan yuqoriroqqa chiqqandek tuyuladi. Yana shu narsa ma`lumki, och rangga bo`yalgan buyum engilroq, to`q rangga bo`yalgan buyum esa og'irroq deb tasavvur qilinadi.

Yana shularga alohida e`tibor berish kerakki, oq devordagi qora taxta oqqa bo`yalgan stolning ustki, sirti yoki qora rangli stol va partalar fonidagi oq qog'oz, daftalar ko`zni tez toliqtiradi, o`quvchi organizmining umumiy charchashi mehnat layoqatining sustlashishiga olib keladi.

Ko`rish maydonining yon tomonlaridagi yorug'lik taqsimlanishida xonadagi barcha sirtlarni umumiy yoritish muhim ahamiyatga ega. Xonadagi sirtlarning yorug' qaytarish koeffitsientlari yuqori bo`lsa, qaytariluvchi tarqoq nurlar bilan yoritiladi. Bunda to`q rang soyalar yo`qolib ketadi.

Kunduz kunlari xona devorlari qaytaruvchi nurlar bilan kamroq yoritilgan bo`ladi. Ikki smenada ishlaydigan maktablarda (ayniqsa, qish paytlarida) ko`rish maydonining yon tomonidagi derazali devorlar sun`iy yoritish manbalaridan tushayotgan nurlar hisobiga yorqinlashadi. Shuning uchun derazani qarama-qarshi tomonidagi devor rangiga bo`yash, oynani esa yorug'lik qaytarish koeffitsienti devorning yorug'lik koeffitsientiga mrs rangli parda bilan berkitib quyish lozim.

Yana shuni ta`kidlash kerakki, yorug'lik tushganda yaltirash xususiyatiga ega bo`lgan buyumlar har tomonlama talabga javob beradigan qilib yoritilgan xonalardagi komfortni buzadi. Ko`rish organi kamroq charchashi uchun sind xonalarini to`g'ri yoritish bilan birga ulardagi ranglar gammasiga jiddiy e`tibor berish kerak. Sinf

xonalarini bo`yash uchun ranglar spektridagi yashil, sariq va oq ranglar eng optimal ranglar hisoblanadi. Chunki ko`z bu ranglarga o`rganishda boshqa ranglarga o`rganishdagiga nisbatan kamroq charchaydi. Shuning uchun sinf xonalarini to`yinganlik darajasi uncha katta bo`lmagan issiq gammaga bo`yash kerak. Issiq yoki sovuq gammadagi ranglarni tanlashda mahalliy sharoitlardan kelib chiqiladi. Katta sirtlarni (devor, pol va hokazolarni) bo`yashda tanlangan ranglar kichik sirtlarda uncha yorqin ko`rinmaydi. Chunki katta sirtlarga xonadagi boshqa sirtlardan qaytuvchi nurlar ko`proq tushadi. Katta sirtlarni kul rang yoki uning yuqorida aytilgan ranglar bilan aralashmasiga bo`yash muvoffiqdir.

Toza oq rang sinf xonalaridagi ichki sirtlarni bo`yash uchun tavsiya etilmaydi, chunki u ranglar yorqinligidan kontrastni juda oshirib yuboradi. Sinf xonalaridagi buyum va sirtlarning ayrim qismlarini qora rangga bo`yash ham xuddi yuqoridagi vaziyatni vujudga keltiradi. Undan tashqari, qora rang o`zining yorug'likni yutish xususiyati bilan xonaning umumiyligini yoritilganlik darajasiga ham salbiy ta`sir o`tkazadi.

Barcha yoshdagi o`quvchilar toza va yorqin ranglarni xush ko`radilar. Lekin o`quvchilarning u yoki bu rangga moyilliklari yoshlari ulg`ayishi bilan o`zgarib boradi. Kichik yoshdagi o`quvchilar issiq tusdagi ranglarni ko`proq yoqtiradilar, sovuq tusdagi ranglar og`ushida ular o`zlarini o`quv-tarbiyaviy jarayon talab qilganiday his eta olmaydilar. O`rta yoshdagi o`quvchilar iliq tusdagi ranglarni afzal ko`rishsa, katta yoshdagi o`quvchilar sovuq tusdagi ranglarga moyillik bildiradilar.

Ranglar o`rtasidagi munosabatlarga kelganda esa kichik yoshdagi o`quvchilar nisbatan to`yingan kontrast ranglarni xush ko`radilar. O`rta va katta yoshdagi o`quvchilar biroz murakkabroa bir-biriga yaqin ranglarni yaxshi ko`radilar.

Maktab binosini rang jihatidan bezashda uning hamma joylarida bir xil rangning qaytarilishi mutlaqo noto`g`ridir. Afsuski, ayrim maktablarda bu hol yuz berib turadi. Maktab koridorlari, sinf xonalarining panellarini bir xil rangga (misol uchun yashil yoki havo rangga) bo`yaladi.

Ranglardagi haddan tashqari monotonlik o`quvchilarini tez zeriktiradi va charchatadi. estetik nuqtai nazardan olganda ranglardagi to`yinganlik va yorqinlik darajasi turli variantlarda olingan taqdirda ham talablarga javob bermaydi. Bir xil ranglar charchash, xatto, to`yingan ranglarga ega bo`lgan sirtlar ham uncha nazarga tushmay qolishga olib keladi.

Qo`llanilayotgan rang xillari ayniqsa kichik yoshdagi o`quvchilar uchun juda muhimdir. Shunga ko`ra sinf xonalaridagi ranglar ikki-uch xildan oshmasligi lozim. O`quv yurtidagi umumiyligini saqlash uchun bir xil ranglarning to`yinganlik va yorqinlik darajasi bir necha variantlarda olinishi mumkin. O`qituvchilar yoqtiradigan yorqin, to`yingan ranglarni o`quv mashg`ulotlari o`tkaziladigan xonalarda qo`llash mumkin. Dam olish xonalari, vestibyul', zinapoyalar, oshxona, majlislar zali va boshqa joylarda qo`llaniladigan ranglarning yorqinligi va gammasinga qo`yiladigan qat`iy talablarga javob beradigan ranglardan foydalanish kerak. Bu joylardagi ranglarning yorqinlik jihatidan kontrast bo`lishi o`quvchilarning binoga kirib kelishida, tanaffus paytlarida ularning kayfiyatini ko`taradi.

Ammo yorqin to`yingan ranglar bilan katta sirtlarni bo`yash tavsiya etilmaydi. Chunki bu hol umumiy yoritilganlikni pasaytiradi, o`quvchilarda tig'izlik taassurotlarini keltirib chiqaradi, ularning ko`zini charchatadi.

Ranglarning tusini tanlashda xonalar va boshqa joylarning yoritilganligini to`g`ri baholash kerak. Shundagina sinf xonalarni o`quvchilarning yoshlariga mos qilib yoritish, ranglarning mutanosibligiga erishish mumkin.

Jilo va rangni his etish paytida nurning fizik xususiyatlari tufayli yuz beradigan ba`zi qonuniyatlar hozir yaxshi ma`lum. Jilo – yorqin tasavvur hissiyoti faqat ko`zning to`r pardasiga tushayotgan nurning intensivligiga emas, balki ko`zning to`r pardasiga bundan oldingi tushgan nurning intensivligiga ham bog`liqdir. Agar ko`z ma`lum vaqt qorong`ilikda turgan bo`lsa, u sezgirroq bo`lib, nur yorqin bo`lib tuyuladi. Bu hodisani qorong`ulik adaptatsiyasi deb ataladi. Yorqinlikni his etishni belgilaydigan yana boshqa omil - his etayotgan ob`ektni qurshab turgan maydon yorliqligining intensivligidir. Qora fon o`rtasida turgan narsa yuzasi yorqinroq ko`rinadi. Uning rangi qo`srimcha nur tushayotgan atrof maydon yoki kenglikdagi yorqinlik kontrasti deb ataladi. Agar qo`ng`ir kvadrat qora fonga qo`yib qaralsa, u yorug` fondagi qo`ng`ir kvadratga nisbatan yorug`roq ko`rinadi.

Bundan tashqari, davomli yorug`lik kontrasti ham mavjud bo`lib, bu ko`rilayotgan ob`ektning ta`siridan keyin ham bir oz vaqtgacha davom etadigan ko`rish hissiyotining holatidir. Ravshan yonayotgan elektr lampasiga qarab turib, so`ng mo``tadil yoritilgan devorga qarasak, unda shaklan lampochkani eslatadigan qora dog`ni ko`rishimiz mumkin.

Rang ham xuddi nur va soya singari buyumning shaklini ro`yobga chiqarib, uni bilishga imkon yaratadi. Shu ma`noda shakl buyumning salmoqli jihatni bo`lib ko`rinadi. Real hayotda rang shaklni tashkil etuvchi omil sifatida gavdalanadi.

Organizmga rangning ta`siri xususida to`xtaladigan bo`lsak, qizil rang hissiyotni qo`zg`atadi, ko`k rang pasaytiradi, yashil rang tinchlantiradi, deb qaraladi, bu ta`sirning qonuniyati yaxshi o`rnatilgan bo`lsa ham, hozirgi paytda rangning organizmga ta`sirini fiziologik jihatdan izohlab beradigan biron ta ham tadqiqot yoki faraz mavjud emas. Bu ta`sirlarni izohlovchi qarashlar orasida eng ko`p tarqalgani qizil rangning olov bilan, yashil rangning maysazor va dalalarning tinchlantiruvchi ta`siri bilan, ko`k rangning suvningsovutuvchi ta`siri bilan assotsiatsiyasiga doir qarashdir.

Rassomlar "issiq" va "sovuuq" rang degan tushunchalarni ishlatishadi. Bu tushunchalar psixologik jihatdan deyarli o`rganilmagan. Ba`zi olimlar bu atamalar mazkur rang boshqa bir rang tusiga tomon o`zgara boshlagandagina ma`no bildiradi, deb hisoblaydilar. "Iliq" va "sovuuq" terminlarining ta`siri asosiy rangdan biroz bo`lsada, chetlashgan taqdirdagina yuzaga chiqadi. Masalan, ko`k rang qizg`ishga qaraganda iliqroq bo`lib tuyuladi.

Ranglarning afzalligini aniqlash bo`yicha o`tkazilgan tadqiqotlarda keltirilgan ma`lumotlarda qarama-qarshiliklar mavjud. Ranglarning afzalligi haqidagi qarash ijtimoiy-shaxsiy omillarga bog`liq, deb chiqarilgan xulosa to`g`ridir. Liboslarning, mebel', kvartira devorlarining rangini yoqtirish - kishining yoshi, kasbi hamda uni qurshab turgan tabiat: o`simlik va hayvonot dunyosining holatiga ham bog`liqdir.

Ko`z bilan ko`rib his etishda buyumning hamda kuzatuvchining o`z harakati ham muhim omillaridan sanaladi. Harakat qilayotgan narsalar bizning diqqatimizni jim turgan narsalarga qaraganda ko`proq o`ziga jalb etadi.

Harakatni ko`rib his etishni tushunish uchun harakatlanayotgandek tasavvur hosil qilishning ahamiyati kattadir. Masalan, atrof - dalaning harakat fonida harakatsiz ob`ektlarning harakatlanayotgandek bo`lib ko`rinishi "Harakatsiz" bulut to`dasi orasidagi oyning "parvozi" ham mana shunday tasavvurni beradi. Odatda, bolalar rangdan juda tez va kuchli ta`sirlanadilar. Shuning uchun binolarning qanday rangga bo`yalishi bиринчи darajali masaladir. Ko`z bilan ko`rib ishslash uchun eng yaxshi sharoit yaratish bo`yicha ishlangan mamlakatimiz va chet el olimlarining tadqiqotlarida rang masalalarini to`g`ri hal qilish yuzasidan tegishli xulosalar chiqariladi. Bu xulosalar bolalar shug'ullanadigan xonalardagi yorug'lik darajasini, nur mutanosibligini, ular uchun eng ma`qul ranglarni tanlashda katta yordam beradi.

Tajriba sinf xonalari to`g`ri va funksional jihatdan ma`qul ranglarga bo`yalsa, o`quvchilarning ishlari yanada jonlanishini va ular o`quv materialini yaxshiroq o`zlashtirishlarini ko`rsatmoqda. Binolarga rang berish masalalari faqat funksional jihatdan emas, balki hozirgi zamon inter`yerining badiiy muammolari nuqtai nazaridan ham hal qilinmoqda.

O`quv yurtidagi hamma xonalarni ikki guruhga bo`lish mumkin. Bular a) o`quv xonalari, b) dam olish xonalari, zina, majlislar zali va hokazolardan iboratdir.

Birinchi guruhdagi xonalarda ko`z nuri hamda e`tiborni bir erga to`plab shug'ullaniladi. Bu xonalar oddiy, bir-biriga yaqin och ranglar bilan bo`yaladi.

Ikkinci guruhdagi xonalar o`z vazifasiga ko`ra rang jihatdan o`quv xonalarning teskarisidir. Majlislar zali, vestibul', oshxona, zinalar rangdor, quvnoq, kontrast ranglarga bo`yalishi lozim. Bu joylarda ranglarning me`yori xususida keskin talablar mavjud emas.

Rang hamda yorug'likning kuchli kontrastlari o`quvchilarda quvnoq kayfiyat yaratishga ko`maklashadi. Ammo bundan mazkur xonalarning devorlari turli-tuman to`q ranglarga bo`yalishi kerak, degan xulosa chiqarmaslik lozim. Bunday ranglar bolalarning jiig`iga tegishi, estetik jihatdan esa hech qanday manfaat keltirmasligi shubhasizdir. Bundan tashqari, katta yuzalarning (pol, devor) to`q ranglarga bo`yalishi xonaning yorug'ligiga to`sinq bo`ladi. Bu moyli bo`yoqda ham, boshqa xil bo`yoqlarda ham salbiy natijaga olib keladi, xonada ko`rish tiniqligi yo`qoladi, xonaning o`zi "torayib ketadi". Barcha xonalar katta va yorug' xona taassurotini berishi kerak. O`rtacha quyuqlikdagi, to`q rangli bo`yoq bilan kutilgan darajada kuchli va quvnoq taassurot beradigan vaziyatni vujudga keltirib bo`lmaydi. Demak, mazkur xonalarning pol va devorlarini, eshik va romlarini ham yorqin rangga bo`yash kerak. To`rt tomondagi devorning pastki qismini (ya`ni panelini), taxtani to`qroq qilish lozim. Kamroq miqdorda ishlatilgan to`q rang xonadagi boshqa ranglarning ravshanligini va yorqinligini kuchaytirib ko`rsatadi.

Xonadagi devorlarning rang kompozitsiyasini dekorativ yoki monumental bezaklar vositasida, shuningdek, ko`rsatmali tashviqot va almashinib turadigan har xil didaktik ekspozitsiyalar vositasida bezash mumkin.

Ikkinci guruh xonalarga rang tanlashda o`quvchilar xonada qancha vaqt va qaysi vaqtida bo`lishi e`tiborga olinadi. Ma`lumki, o`quvchilar kamroq vaqt

shug'ullanadigan xonalarni quyuq, ruhlantiradigan rang va ranglar qo'shilmasidan foydalanib bo`yaladi. O`quvchilar ko`proq vaqt shug'ullanadigan xonalarni esa quyuq ranglardan kamroq foydalanib, yumshoq ranglar bilan bo`yash ma`qul. Yordamchi xonalar, vestibyul' va zinalar o`quvchilar kam vaqt bo`ladigan joylar hisoblanadi. Oshxona va majlislar zali esa o`quvchilar ko`proq vaqt foydalanadigan joylardir.

Yana shuni ham nazarda tutish kerakki, ikkinchi guruh xonalari o`zining ahamiyati jihatidan bir xildir. O`quvchilar o`quv yurtiga kirib keladigan vestibyul' hamda majlislar zali ko`tarinki ruh beradigan hamda estetik ta`siri kuchliroq vositalar bilan bezatilishi lozim.

### ***Tayanch tushunchalar***

Kompozitsiya, Gorizontal kompozitsiya, Vertikal kompozitsiya, Rangning yorug'ligi, Issiq ranglar, Sovuq ranglar.

### **Nazorat savolari**

1. Badiiy bezash ishlarining maqsad va vazifalari nimalardan iborat ?
2. Badiiy bezash ishlarining qanday asosiy rang kollaritlari mavjud ?
3. Maktabda badiiy bezash ishlarini takomillashtirishda kompozitsiyani qanday ahamiyati bor ?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

:

1. Solovyev S.A. Shrift i dekorativnoye oformleniye.
2. Qodirxujayev F. Maktabda badiiy bezash ishlari.
3. Xvorostov A.S. Dekorativno-prikladnoye iskusstvo v shkole.
4. S.S.Bulatov. O`zbek xalq amaliy san'ati bezagi - T.: "Mexnat" 1991.

## **VIII. Mavzu. Kompozitsiyaning asosiy qonunlari. Badiiy bezak ishlarida yozuvlar. Yozuv kompozitsiyasi e`lon ,shiyor,tabrik matni kabi yozuvlarni yozish.**

### **Reja:**

1. Dastlabki yozuvlarining kelib chiqish tarixi, lotin, arab, rus yozuvlarining qisqa tarixi.
2. Shrift turlari va ularni tahlil qilish.
3. Badiiy bezash ishlarining g'oyaviy – badiiy mazmunini ochishda shriftning tutgan o`rni.
4. Badiiy bezak ishlarida qo`llaniladigan shriftlar.

O`quv yurtidagi badiiy bezash ishlariga qo`yiladigan estetik talablar ortib borayotgan hozirgi kunda ana shu ishlarning asosiy elementlaridan biri bo`lmish shrift qo`llash san`ati yuqori badiiy sifat darajasiga ko`tarilishi lozim.

Biz harflar vositasida o`z fikrimizni va o`zgalar fikrini uqib olamiz. Bu e`lon, chaqiriq, devoriy gazeta va boshqa ko`rgazmali tashviqot vositalari yordamida amalga oshadi. Bularni bajaradigan yoki unga bevosita rahbarlik qiladigan shaxs shrift nazariyasini va yozish malakalarini egallagan bo`lishi kerak.

Shriftning juda ko`p turlari mavjud. Fikrimizning dalili sifatida istalgan gazetani olib qarasak, undagi sarlavhalar turli xildagi shriftlardan iborat ekanligini ko`ramiz.

So`zning grafik ifodaliligiga shriftning obrazliligi, shrift kompozitsiyasining tuzilishi va yaxlitligi hisobiga erishiladi. Shrift kurgazmali tashviqotning barcha vositalari orqali o`tadi va mavzuga bog`liq holda jo`shqinlik va his-tuyg`ularni, chaqiriq va osoyishta eslatishni, lirika, assotsiatsiya, humor, satira va hokazolarni eng aniq ifodalaydigan tasvirga ega bo`lishi kerak.

Keng uchli asboblar bilan yozish va chizish texnikasini puxta o`rganish, eng yaxshi shrift namunalarini bemalol bajara olish kishining shrift sohasidagi badiiy bilim saviyasini oshiradi. "Obraz, obrazlilik, - deydi atoqli rassom S.B. Telingater, - kishi tafakkurining ob`ektiv olamni bilish jarayonida, u o`z fikrini boshqalarga berish uchun turli vositalardan foydalanish natijasida vujudga keladigan sohasidir. San`at asaridagi kabi shrift tasviridagi badiiy obraz butun jarayonning mahsulidir"<sup>1</sup>.

Agar jurnal va boshqa matbaa mahsulotlarini varaqlasak, ulardagi shriftlar yana ham rang-barangligini ko`ramiz. Shrift uslublari va farniturlarining rang-barangligi insoniyat taraqqiyotining uzoq va murakkab bosqichi davomida yuzaga kelgan.

Jahon yozushi tarixi asosan to`rtga bo`linadi:

1. Piktografik (surat ko`rinishidagi) shrift -dastlabki odamlar qoyalarga surat shaklida tushirgan yozuvlar.
2. Ideografik (ieroglif tarzda) – eramizning dastlabki paytlardagi va savdo aloqalari o`rnatilgan davlatlar (Misr, Xitoy) yozuvlari.

<sup>1</sup> Ҳаранг. Смирнов С.И. Шрифт и шрифтовой плакат: М.: "Плакат", 1978, 6-7 – бетлар.

3. Bo`g`inli (bir yozuv belgisi - bo`g`in) - Hindistondagi ayrim xalqlarning yozuvi, YAponiyada bu yozuv Xitoyning ieroglit tarzidagi yozuvi bilan birga qo`llangan.
4. Harfiy tovushli – (fonematik) – tillarning fonematik tarkibini aks ettiruvchi yozuv.



Harflar va yozuvlardan doimo takomillashib borgan, bu jarayon hozirgi bosqichda ham davom etmoqda.

Shriftlarning ayrim nazariy asoslari o`zgarib borsa -da, lekin shrift va shriftli kompozitsiyaga bo`lgan asosiy talablar o`zgarishsiz qolmoqda.

Harflarning sifat xarakteristikasi bo`lmish qo`shimcha belgilar ham borki, ular harflarning nisbatlari, yo`g`onligi, chiziqlarning qalinligi bo`lib, quyidagilardan iborat: a) harflar enining balandligiga nisbati, b) harflarning balandligi, v) asosiy va birlashtiruvchi chiziqlarning kontrastligi, g) ularning tik yoki og`ma bo`lishi, d) kertik pastga va yonga chiqadigan elementlarning xarakteri va boshqalar.

Badiiy bezash ishlarida ko`proq plakat shrifti qo`llaniladi. Ulardan chaqiriqlar yozishda, ko`rgazmali tashviqot ishlarida, devoriy gazetalar va e`lonlar yozishda foydalilaniladi. Plakat shriftlarning afzallikkari shundaki, ularni yozish aytarli qiyinchilik tug'dirmaydi. Shrift belgilari sodda va tushunarli bo`lgani uchun tuzilgan matnlar tez va oson o`qiladi.

Yozuvlarning badiiy-obrazli va kompozitsion mohiyati ko`p jihatdan shriftlarga bog`liqdir. Shriftlar nisbatining turli variantlari mavjud. Masalan, vertikal (asosiy) chiziqlari baland. eni qisqa olingan cho`zinchoq shriftlar yoki, aksincha, gorizontal o`qdagi o`lchami katta, vertikal o`kdagi o`lchami juda qisqartirib olingan shriftlar va hokazo. Shriftlarning nisbati 1:1 dan 1:2 gacha turlari badiiy bezash ishlarida ko`proq qo`llanadi. Yozuvlarning o`qilishini engillashtirish maqsadida

ayrim hollarda odatdagи nisbatlardan chetlashish mumkin. Ma`lumki, inson ko`zi yaxshi ilg'ashi uchun nisbati 3:5 bo`lgan shriftlar qulaydir.

Shriftlarning yana bir sifati-chiziqlarning yo`g'on yoki ingichkaligi matnlarning ma`naviy va badiiy ahamiyatini ochib beruvchi omil hisoblanadi. Yo`g'on chiziqni shriftlar bilan yozilgan yozuvlar fon bilan o`ziga xos kontrast hosil qilib, oson o`qiladi.

Harflarning chiziqlari yo`g'on bo`lishi ayrim dekorativ ishlarga uncha mos kelmasligi, ular o`zining konstruktiv tuzilishiga ko`ra umumiyligini qatordan ajralib qolib, bajarilayotgan ishning sifatiga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin.

Bunday hollarda shrift chiziqlarning yo`g'onligini o`zgartirishga to`g'ri keladi.

Shriftlarning og'ma bo`lishi ham o`ziga xos ahamiyatga ega. Bunda harflarning chiziqlari vertikal holatdan 7° og'ma bo`lishi tavsiya etiladi. Bundan ortiq og'dirib yozilgan shriftlar xuddi omonatdek ko`rinishga ega bo`lib, ularni o`qish qiyinlashadi.

Plakat shriftning ko`pgina belgilari klassifikatsiyada ko`rsatilmagan. Masalan, "O" harfi to`g'ri to`rtburchakdan tortib aylana shakligacha ko`rinishlarda yozilishi mumkin. Shuningdek, "K" harfi tasnidan chetdan qolgan. SHuni ta`kidlash kerakki, ko`rsatilgan variantlar bo`yicha boshqa harflarning qanday yozilishi ham hal qilinadi. Shriftlarning tutashish joylari to`g'ri to`rtburchak yoki silliq aylanasiyona bo`lishi alifbodagi hamma harflarga tegishli bo`lishi kerak. Aynan shu bilan "shrift garniturasi" tushunchasining mohiyati xarakterlanadi, ya`ni hamma harf va raqamlar bir xil xarakter kasb etadi.



Yuqorida ko`rilgan shrift garniturasiga kiruvchi harflar chiziqlarining yo`g'onligini orttirish yoki kamaytirish hisobiga qiziqarli grafik natija olish mumkin. Bunda harf va raqam belgilariga turli kontrast berish yoki ularni og'ma holda tasvirlash nazarda tutilmoqda.

Lotincha kursiv va engil usuldagagi shriftlar o`quv yurtilarida amalgalashirilayotgan kundalik badiiy bezash ishlarida keng qo`llanilioqda.

Lotin va kursiv shrifti asosida grafik ravonlik yotadi. Kursiv shriftining eng asosiy farqlanuvchi belgisi "G" va "T" harflarining shaklidir. SHuning evaziga qator variantlarda shrift qatorlari jiddiy tusdagi ritmik qatorlar bo`lib ko`rinadi.

Ayrim hollarda ritmik bir xillik monotonlikni keltirib chiqaradi va shriftni o`qish qiyinlashadi. Faqat elementli (O^, J, M, Q, H, TS) harflar matnga biroz jonlantirish kiritadi.

Agar badiiy bezash ishlarida kursiv shriftda ishlangan yozuvar bir yoki ikki qatordan oshmasligini hisobga olsak, bu monotonlik keltirib chiqarmaydi va matnni bemalol o`qish mumkin bo`ladi.

Engil yozma usuldagagi shriftlardan devoriy gazetalar va turli xildagi e`lonlar yozishda, ozgina vaqt sarflab, tez bajarish talab etilgan ishlarda foydalanish mumkin. Turli matolarga bajarilgan bunday yozuvar faqat bir stend doirasida emas, balki butun bir inter`erni bezashda muhim dekorativ-badiiy vazifani bajaradi.

Aytish mumkinki, engil yozma harflar bitilgan matn dekorativ ma`noli yozuvdir. Shriftlarning boshqa turlarida bo`lganidek, qo`l yozma harflar bilan yozishning ham qator turlari mavjud. Ular hamma guruhrar uchun umumiy bo`lgan kompozitsion belgilarga mos holda xal etiladi. Harflar balandligi va eni nisbatini kattalashtirib yoki kichiklashtirib olish yozuv qatorlarini yoyilgan va yig'ilgan qilib ko`rsatadi. Uzun so`zlarni ma`lum chegaralangan o`lchamdagagi yuzaga sig'dirish lozim bo`lsa, harflarning nisbati kichikroq qilib olinadi, kichikroq matn bilan yuzani to`ldirishda esa harflarning o`lchamlari kattalashtiriladi. Harflarning chiziqlarini yo`g'onlashtirilsa, jumlalarni o`qish qiyinlashadi. Harflar nisbati o`rtacha bo`lsa, jumla yaxshiroq o`qiladi.

Yozma harflardan foydalanganda matn mazmuni e`tiborga olinadi. Bunday harflar bilan turli bayramlarga, badiiy kechalarga taklifnomalar yoziladi. Jiddiy matnlarni esa to`g'ri harflar bilan yozish tavsiya etiladi.

Yozma harflarda yozilgan matnlar ta`sirchan bo`lishida uni bajarayotgan rassomning fantaziysi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O`quv yurtlarida amalgalashirilgan badiiy bezash ishlarida qo`llangan shriftlarni kuzatar ekanmiz, aksariyat hollarda harf shakllari noto`g'riliqini ko`ramiz. Xatolar shulardan iboratki, ularda shriftlarning yagona strukturasiga, harflarning guruhrarini tashkil etuvchi xarakterli belgilarga, harflarning nisbati va chiziqlarining yo`g'on-ingichkaligiga amal qilinmagan.

Biz ana shu harflarni o`rganish, o`rgatish va eslab qolishni osonlashtirish maqsadida ularni o`zaro teng kataklarga ajratamiz. Harflar balandligini beshta katakcha qilib, qalinligini quyidagicha belgilaymiz.

B va V harflari oddiy E ko`rinishdagi, nisbatlari bir xil bo`lgan harflardir. Bu harflarning o`ng tomonlarini ikki xil variantda bajarish mumkin. Birinchisi to`g'ri to`rtburchak shaklida jiddiy ko`rinishdagi varianti bo`lib, bunda faqat tashqi

burchaklarigina yumaloqlanadi. Ikkinci variantda bu harflarning o`ng tomonlari tsirkul' yordamida yarim aylana shaklida tasvirlanadi.

E harflarni yasash uchun esa G harfiga belbog' qo'yish kifoya. T harfi ham xuddi shunday xususiyatga ega.

E harfining ham konstruktiv tuzilishi sodda. Uning vertikal chiziqlari 3 ta, gorizontal chiziqlari esa 5 ta katak (ya`ni 3:5 nisbat) da bo`ladi. Gorizontal matnlarda bunday nisbatda yozilgan E harfi alifbodagi boshqa harflardan farq qilishi mumkin. Shuning uchun uning gorizontal chiziqlari ayrim hollarda yarim katakka qisqartirib olinadi.

I harfning tuzilishi N, P harflariga o`xshash va ular bilan teng qilib yoziladi. O`ng vertikal chizig'ining yuqori qismi bilan chap vertikal chizig'ining pastki qismini tutashtiruvchi chizig'ini asosiy chiziqlarga nisbatan biroz ingichkalashtirib olish ham mumkin.

K harfini yozishning bir necha variantlari bo`lib, aniq bir variantni alifbodagi boshqa harflarning konstruktiv tuzilishidan kelib chiqadi. Uning o`ng tomonidagi chiziqlari chap tomondagi vertikal chizig'ining o`rtasiga asosiy yo`g'onlikda tutashtiriladi. Agar yuqorida ko`rsatib o`tilgan harflarning asosiy chiziqlari vertikal holatda bo`lib, yuqori tutashtiruvchi chizig'ining o`ng tomoni to`g'ri burchak, chap tomoni silliqlashtirilgan holda birlashtirilsa, K harfi ham xuddi shu garnituraga mos qilib olinadi, ya`ni o`ng gorizontal chizig'ining yuqori va pastki qismlaridan yarim katak o`ng tomonga burib ko`rsatiladi. Ayrim hollarda matnning o`qilishini osonlashtirish maqsadida soddalashtirib yuborish mumkin. Pastga tushuvchi elementni qo`shish bilan K harfidan Q harfini hosil qilish mumkin.

J harfini yozishda K harfini yozishdagi talablarga amal qilinadi.

Qolgan harflarning yozilishini ham asosan kataklar orqali o`rganish maqsadga muvofiqdir. Harflar garniturasidagi qoidalar raqamlarga ham mos keladi. Boshqa hollarda esa raqamlarni matnning mazmuni va mohiyatiga moslab, matndagi harflar bilan hamohang o`qiladigan ko`rinishda yozish mumkin. Buning uchun turli guruhdagi harflarning konstruktiv tuzilishiga qo`yiladigan talablardan ongli ravishda chetlashishga to`g'ri keladi.

Badiiy bezash ishlari bo`yicha amaliy ko`nikmalarni takomillashtirishning birinchi bosqichida konstruktiv tuzilishi jihatdan eng sodda bajarilishi qulay plakat shriftlari o`rganiladi. Harflarni aniq yozish o`zlashtirilgach, biror matnni yozishda yuqorida aytiganidek, vertikal va gorizontal yo`nalishlarda bo`lingan kataklardan foydalanilmaydi. Chunki bu ish ko`p vaqt oladi. Matnni yozish uchun harflar balandligi va pastki asoslarini chegaralab turadigan parallel joylashgan ikkita gorizontal chiziqlarning o`zi kifoya qiladi. Harf chiziqlarining yo`g'onligi bir xil bo`lishi uchun yozadigan qurol (mo`yqalam, plakat perosi) tanlab olinadi. Harflar orasida ilgari aytiganidek, ularning turlariga qarab bir yoki yarim katakka teng joy qoldiriladi. So`zlar orasi esa bitta harf eniga barobar bo`ladi.

Bu usul doim ham yozuv va matnlarning ritmik qator bo`lishini ta`minlamaydi. Buning sababi shundan iboratki, alifbodagi harflar turli konstruktiv tuzilishga egadir. Toshkent – Sharq mash`ali jumlasida mash`al so`zi asossiz alohida yozilmoqda. Uning to`g'ri kompanovkasi quyidagicha bo`ladi:  
Toshkent – sharq mash`ali! yoki Toshkent – Sharq mash`ali!

Bu so`zlarning har birini alohida – alohida qatorga yozish ham mumkin. Matnlarni yozishda ularni oldin yaxshilab o`ylab olish kerak. Matndagi asosiy g`oyani shriftlarning kontrasti, rangi, garniturasи va o`lchamlarining katta kichikligi ochib beradi.

### **Tayanch tushunchalar**

Plakat, Shrift, Piktografik (surat ko`rinishidagi) shrift, Ideografik (ieroglif tarzda), Harfiy tovushli – (fonematik).

### **Nazorat savollar**

- 1.Jahon yozuvi tarixi xaqida aytib berin ?
2. Badiiy bezash ishlarida plakat shriftilar ?
- 3.Yozma harflardan foydalanganda nimalarga e`tibor qaratiladi ?

### **Foydanilgan adabiyotlar.**

1. O`zbekiston Respublikasining Qonuni «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» haqida. T.: O`zbekiston. 1998.
2. Bulatov S.S. O`zbek xalq amaliy bezagi san`ati T.: Mehnat 1991.
3. Qodirxo`jaev F. Maktabda badiiy bezash ishlari. T.: O`qituvchi. 1991.
4. Solovyev S.A. Shrift i dekorativnoye oformleniye.
5. Xvorostov A.S. Dekorativno-prikladnoye iskusstvo v shkole.

## **IX. Mavzu. Nusxa ko`chirish. Chizilgan bayram atkritkalar, plakatlardan nusha ko`chirish. Ramziy belgilar va emblemalar kompozitsiyasini tuzish. Interer va ekstererning badiiy bezatilishi.**

### **Reja**

1. Tasviriy san`at texnologiyasi
2. Tasviriy san`at texnologiyasida ishlatiladigan anjomlar
3. Nusxa ko`chirish usullari

Tasviriy san`at o`qituvchilarini tasviriy san`at namunalarini o`rgatish asosida tayyorlash va tasviriy san`at texnologiyasi va nusxa ko`chirish faniga tegishli materiallardan to`g'ri foydalanish metodikasi bilan tanishtirish tizimi, bir qator vazifalarni belgilaydi. Tasviriy san`at fanlarida amaliy mashg'ulotlar bajarish uchun turli materiallardan foydalanish mumkin. Har bir bajarilayotgan vazifa uchun ushbu materialarni to`g'ri tanlay bilish, tasvirni muvaffaqiyatli bo`lishida katta ahamiyatga egadir.

Tasviriy san`at texnologiyasi mashg'ulotlari qalamtasvir, rangtasvir va xalq amaliy san`ati turlarini deyarli barchasida ishlatiladigan materiallar va qurollarni tayyorlashning asosiy qonun-qoidalari.

Talabalarga quruq holda ishlatiladigan va suyuq holda ishlatiladigan materiallar to`g'risida tushuncha berish.

Nusha ko`chirish mashg'ulotlarida qadimgi ustalarining rangtasvir asarlari xususiyatlarini o`rganish va rassomlarning asarlarini tahlil qilish. Qadimgi va hozirgi kundagi taniqli rassomlarning grafik va rangtasvir asarlaridan nusha ko`chirishning asosiy qonun qoidalari.

Tasviriy san`atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo`lib, ular bir-biridan ishlanish yo`llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamga har-xil ta`sir etadi. SHuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo`lgan «xira» deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, uz faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma`lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlich ra`si etib fikrlar uygotadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. SHuning uchun tasviriy san`atning juda ko`p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda kagga bilan quvvatli ekanligi ma`lum haqiqatlardan eng asosiysi desak to`rri bo`ladi. SHuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o`rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan ma`lumki ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo`shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo`shish orqali qo`shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va zangorini qo`shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo`piup orqali zargaldoq, sariq va zangorini qo`shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin. Ranglar tabiatan ikki xil xususiyatlari: ilyq va sovuq bo`ladi. Iliq ranglar qatoriga qizil,

sariq zargaldoq va ularga yaqin ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo`lgan ranglar kiradi. SHuningdek axromatik va xromatik ranglar ham bo`ladi. Oq, kul rang va qora ranglar axromatik ranglardir. qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir-biridan faqat och-to`qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kul rang, qora, qoraroq, juda qora va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir-biridan rang tuni ya`ni - qizil, sariq, ko`k, yashil, jigarrang va hokazo, och-to`kdigi ya`ni - och qizil, to`q sariq, to`q qizil, och sariq kabi va to`yinganligi ya`ni yorqin, xiraliligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko`rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo`lib ko`rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishslashda rang garmoniyasini, ya`ni ranglar uykunligini bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo`yoq, tempera, akvarel', guash' kabi bo`yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo`yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo`lib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari (texnikasini) bilishni taqozo etadi. Bo`yoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi. har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy e`tiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagagi ko`rinishi va tasvirdagi ko`rinishi farkdi ekanligini bilib olish mumkin. Chunki narsaning rangi bizdan uzoq-yaqinligiga qarab o`zgarib ko`rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko`rinishiga ta`siridandir. qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to`rri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o`rinlidir. Akvarel' bo`yog'ida ishslash ham o`z navbatida jiddiy o`qib o`rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashgulotdir. Buning uchun amaliy ishning o`zi kifoya qilmaydi. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o`rganib borishni taqoza etadi.

Inter`er-tashkil etilgan fazoviy kenglik sifatida faqat arxitekturaning ajralmas qismi bo`libgina qolmasdan, balki uni arxitekturaning boshlang'ich asosi deb ham atashadi. Tarixiy tarzda to`plangan tajriba va hozirgi vaqtdagi voqelikning guvohlik berishiga ko`ra inter`erning echimi avval ham, bundan keyin ham arxitekturaviy faoliyatning ajralmas qismi bo`lib qolaveradi. O`ziga xos ichki muhitini yaratishda turli profilda faoliyat yuritilayotgan mutaxassislar-texnologdan boshlab rassom va dizaynerni o`z tarkibiga birlashtirishdek vazifani bajarishda etakchilik qilish roli enter`erga tegishlidir. Inter`er muhit sifatida ichkaridan qabul qilinadigan arxitekturaviy shaklning estetik qonuniyatlariga asoslangan holda tashkil etiladi. Inter`erning arxitekturaviy ob`ekt turiga (xona, bino va h.k.) bog'liq bo`lgan differensiallashgan tushunchasi muhitining ma`lum bir turi ko`rinishini joylashtirishning aniq usulini belgilashdan iboratdir.

Bino inter`erida rang katta rol o`ynaydi. Tegishli rang koloristikasi yordamida insonning kayfiyatini va ruhiy holatini o`zgartirish va ma`lum bir me`yorga rostlash mumkin: uning emotsiyal tonusini ko`rsatish, o`rganizmning fizik ortiqcha singdiruvchanligini pasaytirish, quvonch va xushkayfiyatni hosil qilish, bayramona ruhiyat, ishbilarmonlik, xotirjamlik va xushyorlik, hozirjavoblik, ish qobiliyatini

ko`tarish va h.k. bundan tashqari rangli effektlar bilan ma`lum darajada tashqi muhitning miqroiqlimga ko`rsatilgan noxush ta`sirini qisman bartaraf qilish mumkin, kenglikda ma`umotlik orientatsiyasini, xonalarning sanitар-gigienik holatini yaxshilashga shart-sharoit yaratishi mumkin. Rang yordamida xonaning harorat-namlik rejimini rostlash va shovqinni bartaraf etish ham mumkin. Issiqlikning ortiqchalogini va etishmasligini bartaraf qilish to`g'ridan to`g'ri sovuq yoki iliq ranglarga bog'liq. Xuddi shu erdan yorug'likning tushish tomonlari bo`yicha yo`naltirishiga bog'liq ravishda xonalar devorlarining bo`yalishiga tavsiyalar berish mumkin. Janubga qaratilgan xonalarda sovuq tonlar issiqlik nurlarini yaxshi yutadi, yorug'likning yorug'ligini pasaytiradi, quyosh yorug'ligining "jazirama" psixologik ta`sirini bartaraf etadi.

Badiiy vositalar ichida san`atning dekorativ-amaliy turlari eng kuchli ta`sir ko`rsatishga qodir. Fazoviy bo`shliqning emotsiyonal to`ldirilgaganligiga erishish uchun tasviriy vositalarning qo`llanilishi zarur bo`ladi. Monumental rang-tasvirdan panno, tasvirlar sifatida foydalanishda takt, me`yorni ishslashga rioya qilish, alohida asarlarning eng yaxshi joylashish variantlarini tanlash talab etiladi.

Inter`erning bezatilishida arxitektura, rang-tasvir, haykaltaroshlik grafikaning o`zaro aloqadorligi uyg'unlashuvning qonuniyatlariga asoslanadi, inter`erning bezatilishi esa uning nimaga mo`ljallanganligiga bog'liq bo`ladi.

Masalan, muzeylar, ko`rgazmalar, ekspozitsiyalar uchun mo`ljallangan xonalar, joylar uchun eksponatlarni namoyish etish, ko`rsatish uchun eng yaxshi sharoitlarning ta`minlanishi talab etiladi. Bunga nafaqat obzor uchun etarli bo`lgan sharoitlar bilan, balki plastikli va rangli echimlar bilan ham erishish talab etiladi.

O`ylagan mavzuni ochish, yoritish uchun fazoviylikni aks ettiradigan san`at turlari keng jalb qilinadi. Fazoviy muhitga dekorativ-amaliy san`at turlarini kiritishda uning yuqori badiiy mutanosibligining inobatga olinishi taqozo etiladi, bunda u xonaning bajaradigan vazifasiga, inter`erning rangli echimiga, uning jihozlariga, mebeliga, yoritilanligiga muvofiq tarzda tanlab olinadi.

Ichki fazoviy kengliklarni tashkil etishda monumental asarlardan keng foydalaniladi. Ular kompleksga panno, haykallar, fazoviy kompozitsiyalar sifatida kiritiladi.

Panno uchun malaka, qirqma, relief bajarilishining samarador usullari tanlanadi. Yanada yangi materiallarning, bir vaqtning o`zida eski materiallarning qo`llanilishi, qayta ishslash usullarining kengaytirishi inter`erlarni loyihalashning uslublarini takomillashtirish uchun cheksiz imkoniyatlarni ifoda etadi. Metalni qayta ishslash variatsiyalari-kovsharlash, qo`yish, egish, payvandlash, toplash, kesish, yopishtirish, silliqlash, donador shakllantirish, qoraytirish, kuydirish, loklash, bo`yash-materialning hamma bunday qayta ishlanishi turli kompozitsiyalar, panno, pardevorlar, bezaklar, chiroqlar, deraza panjaralari, eshiklarni yaratish maqsadida amalga oshiriladi.

Ko`rgazma ishlarini yaxshi yo`lga qo`yish o`quvchilarini aqliy va jismoniy mehnatga qiziqtirish, axloqiy va estetik tarbiyalash uchun qo`shimcha imkoniyatlarni ochib beradi. Turli o`quv predmetlaridan tashkil etilgan ko`rgazmalar o`quvchilarning darslarda olgan bilimlari doirasini kengaytiradi

Plakat termini xozirgi paytda frontal kompozitsyaning ko`rsatmali agitatsiya, reklama, ta`lim, instruktaj va boshqa turli funktsiyalari doirasida juda keng o`rin

tutadi. emotsional ta`sir ko`rsatishning eng operativ va samarali vositasi bo`lganligi uchun plakatdan xozir keng foydalaniladi.

Bajarilishiga qarab plakatlar bosma, trafaret, chizma, fotomontaj turlariga bo`linadi.

Litsey, maktab kollejlarda bosmaxonada tayyorlangan plakatlardan keng foydalaniladi, birok shu bilan birga ko`rish axborot muxitini vujudga keltirishda trafaret, chizma umumda fotomontajlar umum muxim rol' o`ynaydi.

Axborotli-xarfli trafaret plakatlar aniq yozilishi, kompozitsion kurilishi mukammal bo`lishi, rangi ta`sirli chikishi kerak. Odatda ikki rangli xarf dan foydalaniladi. Ba`zan uchinchi xil rang fon sifatida kerak bo`ladi. Ochik rangli fonga to`k ranglar, kora, kizil, ko`k bilan, to`k fonga esa ok, ochsarik, ochzangori, ochbinafsha ranglar bilan yozish maksadga muvofikdir. Xarfli plakatlar uchun toza qog'oz eng yaxshi fon xisoblanadi.

Xarifli plakatda har doim asosiy va ikkinchi darajali tekst uchraydi. Asosiy tekstni ikkinchi darajali tekstga karaganda 3-5 marta yirikrok yoziladi va rangni ko`zga tashlanadigan kilinadi. Uni jiddiy, aniq, o`kilishi oson xarflardan teriladi.



Rasmlı tematik plakatda illyustratsiya asosiy o`rinda turadi, tekst esa unga ko`shimcha bo`lib xizmat kiladi. Plakat bir laxzadayok xis etiladigan va tushunarli bo`lishi shart. Shu sabali plakatdagi rasm va uning rangi aktiv va ixcham bo`lishi, mazmunni aniq bildirishi. Biror vokea yoki tushuncha orkali kishida darxol ma`lum taasurot koldirishi zarur. Tasvirni stillashtirish va umumlashtirib sharxlash xam mumkin. Plakatning tematik markazi bo`lishi kerak.

Mamlakatimizda yigirmanchi yillardayok fotomontaj paydo bo`lgan. Fotomateriallar xamda bosma maxsulotlarning oson topilishi va mo`lligi tufayli fotografianing bu turi bilan maktab inter`yerlarini badiiy bezash imkoniyati

ko`prokdir. Fotomateriallardan tematik stendlar, devoriy gazetalar va boshkalarning kompozitsiyalarida foydalanish mumkin. Buni eng operativ tayyorlanadigan plakat turi desa bo`ladi. Bu ishda vazifalarni taksimlab olgan xolda o`kuvchilarning kollektiv mejumatini yo`lga ko`yish mumkin.

Plakat kompozitsiyasi uchun istalgan materialdan foydalanish mumkin: ramkaga tortilgan materialni gruntlashda ayniksa ok, suvli emul'siya buyogi yaxshi natija beradi. Ranglangan DVP, qog'oz qoplangan faner, PVA, dekistrin yoki BF-2 elimi bilan ramkaga yopishtirilgan rangli plastikalar xam bunga yaraydi.



O'quv yurtlarida fotomontaj orkali tasvirlanadigan mavzular juda ko`p. Masalan fanlarni o`zlashtirish uchun kurash, parranda va xayvonlarni muxofaza kilish, ko`kalamzorlashtirish, xavaskorlik to`garaklar ishi, sport musobakalari, dam olish maskanilari, xayoti va boshqalar.

Mavzuli ko`rgazmalarining tashkiliy tamoyil va usullari muzey eksponatlarini tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir. O`quvchilar mavzuli ko`rgazmalarini tashkil etish va badiiy bezatishda olgan bilim, ko`nikma va malakalar hajmi maktab muzeylarini barpo qilish ishiga professional yondashish imkonini beradi.

Turli bayramlar munosabati bilan tayyorlangan ekspozitsiyalar o`ziga xos mavzuga ega bo`ladi. Nishonlanayotgan bayramlar, muhim siyosiy-ijtimoiy sanalar katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunday tadbirlarni yuksak badiiy saviyada bezash o`quvchilarni g'oyaviy, ma`naviy tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

O`quv yurti inter'yeri ham juda katta va muhim tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo`lgan muhit hisoblanadi, inchunun u yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qilishi kerak.

Birinchi galda, mavjud ta`lim-tarbiya metodlari va hozirgi zamon talablariga javob beradigan darajada badiiy bezatilmagan o`quv yurti inter'yerini har tomonlama maqsadga muvofiq deyish mumkin emas.

O`quv yurtida ta`lim-tarbiya ishlarining sifati, o`quvchilar va o`qituvchilarning yaxshi dam olishi hamda salomatligi o`quv yurti binosining ichi vazifaviy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq holda jihozlanishiga ham ma`lum darajada bog'liqdir.

O`quv yurti inter`yeri – o`quv xonasi, sinf xonalari, direktor xonasi, o`qituvchilar xonasi, oshxona bo`lishidan qat`iy nazar, yuqorida aytilganidek, ta`limtarbiya ishlariga albatta ta`sir ko`rsatadi.

Afsuski, ko`pincha inter`yerning o`quvchi shaxsi rivojlanishidagi ahamiyatiga etarlicha e`tibor berilmaydi. Vaholanki, o`quvchining tushunchasiga ta`sir ko`rsatayotgan muhit uning ruhiy olamiga ham, atrofdagi narsalarga munosabatiga ham u yoki bu darajada ta`sir ko`rsatadi. Shuning uchun o`quvchilarni qamrab olgan muhitga, shu jumladan, mакtab inter`yeriga ham tarbiyaning ajralmas qismi sifatida qarash lozim.

Inter`yerdagi har bir element: dam olish joyidagi kartina ham, xonalarning rangi ham, mebellarning shakli ham, xatto zinapoyalar ham o`quvchilar psixologiyasiga oz yoki ko`p ta`sir ko`rsatib, ularni atrof-muhitni idrok etishga, go`zallikni tushunishga o`rgatadi.

Ta`lim olayotgan 7 yoshdan 17 yoshgacha o`quvchilar asosan uch guruhga: kichik (I-IV sinflar), o`rta (V-VIII – sinflar) va katta (IX-X) maktab yoshidagi o`quvchilarga bo`linsa, ularning hammasi uchun o`ziga xos muhit kerak. Kichik yoshdagi o`quvchilar asosan bitta xonada shug'ullanadilar. O`rta yoshdagi o`quvchilarning ham o`zlariga biriktirilgan xonasi bo`ladi. Lekin ular ayrim fanlar bo`yicha mashg`ulotlarni fan xonalarida o`tkazadilar. Katta yoshdagi o`quvchilar esa butunlay kabinet tizimiga o`tadilar.

Inter`yerdagi sinf xonalarini rejalashtirishda avvalo har qaysi guruh o`quvchilarning mashg`ulotlari boshqa guruhlarga halaqtirishda e`tibor berish lozim.

Masalan, boshlang`ich sinf o`quvchilari yuqori sinf o`quvchilaridan kam shug'ullanadi. Darslar ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qisqartirilishi mumkin. Ayni vaqtida tanaffusga ajratilgan vaqt uzaytiriladi. Shuning uchun ularga alohida blok ajratilgani ma`qul.

Inter`yerni jihozlash va bezashda o`quvchilarning yoshini ham hisobga olish, ya`ni jihozlar faqat muayyan yoshdagi o`quvchilarning bo`yiga mosligini emas, balki turli yosh guruhidagi bolalarning o`ziga xos xususiyatlarini ham nazarda tutishiga e`tibor berish lozim. Keyingi paytlarda o`quv yurtlari tipovoy loyihalar bo`yicha qurilmoqda. Bu binolarning rejalashtirilishi deyarli bir xil. Shuning uchun ularni jihozlash va bezashda inter`yerlarning o`ziga xos bo`lishiga erishish juda muhimdir. O`quv yurtida o`rganiladigan fanlarning mazmunidan qa`tiy nazar, ta`limning bir necha shakl va metodlari mavjud bo`lib, bular o`quv xonalarining jihozlari va ularning joylashuvini belgilaydi. Bunda turli omillar qatori o`quvchilarning yoshiga xos psixologik – fiziologik xususiyatlari ham nazarda tutiladi. Ta`limning asosiy shakllari jamoa, guruh va yakka tartibdagi mashg`ulotlardir».<sup>1</sup>

Inter`yerlarning zamon talablari darajasidagi jihozlari va badiiy bezaklari o`quvchilarni estetik tarbiyalashda, ularning tasavvuri ham didini rivojlantirishda yordam berishi kerak. maktab inter`yerini badiiy bezashda tasviriy san`atning monumental va dekorativ haykaltaroshlik, yog'och va ganch o`ymakorligi, mozika kabi turlari keng qo`llanmoqda. O`quvchilarning o`zlarini ana shu ishlarga jalb etish

eng avvalo ularda o`quv yurti binosiga, undagi jihozlar va bezaklarga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalashda pedagoglarga katta yordam beradi.

Zamonaviy me`morlik namunalari inter`yerdagi barcha elementlarning uslubiy birligi bilan ajralib turadi. Inter`yerni garmonik hal qilish undagi elementlarning munosabatini to`g`ri topish, ya`ni xona, undagi mebel', ranglar, yoritgichlar, bezak elementlari va hokazolarning shakllari o`zaro uyg'unligiga bog'liq. Inter`yerdagi barcha elementlar bir xil muvozanatda bo`lmasligi kerak. Chunki bunday holda ular o`quvchilarga salbiy ta`sir ko`rsatishi, ularni tez charchatib qo`yishi mumkin. Shuning uchun inter`yerdagi ayrim elementlarni jozibaliroq qilib, qolgan elementlarning unga hamohangligini ta`minlash maqsadga muvofiqdir. Jozibaliroq elementlar binoning (xonaning) asosiy funksional vazifasini aks ettirib turishi kerak.

Inter`yerdagi har bir narsa (inter`yerning har bir bo`lagi) o`zi bajaradigan vazifaga muvofiq holda jihozlanadi. O`quvchilar va o`qituvchilar o`quv yurti vestibyulidan kirib kelar ekan, shu arning o`zidayoq ularning harakat jadvali ta`minlanadi. Shuningdek, vestibyulning jihozlari bino ichiga kirish va kerakli bo`limlarga o`tib ketish uchun qulay holda joylashtirilishi lozim.

Litsey, kollej va maktablarda tashkil etiladigan ko`rgazmalarning har biri uchun o`ziga xos orginal badiiy echim topish, ko`rgazmadagi asosiy va ma`noviy elementlarni alohida bo`rttirib ko`rsatish muhimdir.

Mavzuli ko`rgazmalarning tashkiliy tamoyil va usullari muzey eksponatlarini tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir. O`quvchilar mavzuli ko`rgazmalarni tashkil etish va badiiy bezatishda olgan bilim, ko`nikma va malakalar hajmi mакtab muzeylarini barpo qilish ishiga professional yondashish imkonini beradi.

Turli bayramlar munosabati bilan tayyorlangan ekspozitsiyalar o`ziga xos mavzuga ega bo`ladi. Nishonlanayotgan bayramlar, muhim siyosiy-ijtimoiy sanalar katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunday tadbirlarni yuksak badiiy saviyada bezash o`quvchilarni g`oyaviy, ma`naviy tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ko`rgazmani tashkil etishda uning dolzarbliji, zamonaviyligidan tashqari mahalliy sharoit - ko`rgazmada ishlatiladigan materiallar, shuningdek, badiiy bezash ishlarini amalga oshirish imkoniyatlari ham hisobga olinishi kerak. Masalan, boshlang'ich sinf o`quvchilariga mo`ljallangan ko`rgazmaning badiiy - obrazli echimi yuqori sinf o`quvchilariga mo`ljallangan ko`rgazmaning ana shunday echimidan albatta farqlanishi lozim. Mavzuli ekspozitsion reja qabul qilingach, uni bevosita bajarishga kirishiladi. Bu esa ish jarayonida rejaga o`zgartirishlar mutlaqo kiritilmaydi, degan so`z emas. Rejani amalga oshirishda qiziqarli fikrlar, ko`rgazmaning mazmuniga va ta`sirchanligiga ijobiyligi ta`sir ko`rsatadigan materiallar ham topilishi va ularni qo`llab ko`rgazmaning mazmunini yanada boyitish, uning samaradorligini oshirish mumkin.

Odatda, umumiyligi ta`lim maktablari mashhur yozuvchilar, jamoat arboblari, urush va mehnat qahramonlarining nomi bilan ataladi. Bu esa o`quv yurti vestibyulini badiiy bezashda muhim omil bo`lishi mumkin. Masalan, vestibyulda o`quv yurtiga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, hayoti va faoliyatini ifodalovchi materiallar joylashadi, ana shular vestibyulni badiiy bezashda asosiy o`rinni

egallaydi. Inter'yerdagи ayrim elementlar binodan tashqaridagi muhitni bevosita ifodalab turishi mumkin. Vestibulda joy etarli bo`lsa, uning o`quvchilar harakatiga xalaqit bermaydigan qismida yashil burchak tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Uni g'isht va toshlar bilan jihozlab, u erda turli xil dekorativ o'simliklarni parvarishlash, vestibulning mакtab uchastkasi, qolaversa, tabiat bilan uyg'unligini aks ettiradi. Shunga o'xhash mahalliy sharoit bilan bog'liq boshqa elementlarni ham qo'llash mumkin.

Maktabdagi boshqa xonalar inter'yerlarini jihozlashda, avvalo, ularning funktional vazifasini, qolaversa, biologik va estetik vazifalarini hisobga olish lozim.

Sinf xonalari – maktablar inter'yerining eng asosiy qismidir.

Sinf xonalari ularda shug'ullanadigan o`quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq holda jihozlanadi. 1 – 6 sinf o`quvchilari uchun ajratilgan bir kishilik stol va stillarni juftlab qo'yish, stollar orasida 30 sm qoldirish tavsiya etiladi. 5 – 8 sinf o`quvchilari shug'ullanadigan xonalarda ikki kishilik stollar o'rnatilib, ular orasida kengroq yo'lka qoldirish kerak. Stollar 3 qator qilib qo'yiladi.



Sinfda asosiy yozuv taxtasidan tashqari xonaning orqa tomoniga sinf devoriy gazetasi, o`quv qo'llanmalari, navbatchilar jadvali va o`quvchilarning ishlaridan namunalar va hokazolarni joylashtirish, ularning balandligi bir xil va ranglari bir - biriga mos bo`lishi lozim. Agar sinf xonasining koridor bilan tutashgan devorida o`quv qurollari va ko`rgazmali qo'llanmalar saqlash uchun shkaf bo`lmasa, sinf xonasining orqa tomoniga 1 – 2 ta shkaf qo'yiladi.

Sinf xonalari ham, boshqa xonalar ham gigienik, fiziologik va boshqa talablar asosida bo`yaladi.

Endi maktablardagi asosiy fan xonalarini jihozlashning o`ziga xos xususiyatlari haqida to`xtalamiz.

O`zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, xonalar o`z xususiyatlariga ko`ra anchagina umumiyligka ega. Umuman aytganda, bu xonalarni jihozlash boshqa xonalarni jihozlashdan tubdan farq qilmaydi. Faqatgina bularda o`quv qo'llanmalari, jadvallar, metodik adabiyotlar va hokazolar saqlanadigan shkaflar soni ko`proq bo`lishi mumkin. Bundan tashqari, turli mavzuli ko`rgazmalarini namoyish qilishi uchun oynavand va devorga osiladigan vitrinalardan ham foydalilanadi. Ana shu vitrinalarning ranglari kontrast, to`yingan bo`lsa, kishining e'tiborini o`ziga ko`proq jalb etadi.

Xonalardagi devorlarning rangi boshqa sinf xonalaridagi devorlar rangidan farq qilmaydi.

Matematika xonasining jihozlanishi va ranglari ham adabiyot xonasiniki kabi bo`ladi. Faqat undagi sinf taxtasida turli grafiklarni tez va qulay bajarish uchun katakchalar chizib qo`yiladi. Ma`lumki, chet tillar xonasini jihozlashda ta`limning texnik vositalari keng qo`llaniladi. Chet tillarni o`qitishning hozirgi metodlari har xil markadagi kinoproektorlarni, tovush yozadigan va eshittiradigan tele-, audioapparatlar, komp'yuterlarni qo`llashni taqozo etadi.

Chet tillar xonasi devorlarini bo`yashga boshqa sinf xonalari devorlarini bo`yashga qo`yiladigan talablar quyiladi.

O`quvchilar stolidagi ajratib turuvchi vertikal to`sinqlar va boshqa jihozlarning rangi ish stolining ustini bo`yalgan rangdan keskin farq qilmasligi lozim. Maxsus jihozlarni boshqarish tugmachalarning rangigina qandaydir yorqinroq bo`lishi mumkin.

Ximiya kabinetlari 7 – 10 sinf o`quvchilari shug'ullanishiga mo`ljallangan hamda laboratoriya hamda laborant xonasidan iborat bo`ladi. Laboratoriya o`qituvchisi bilan o`quvchilar ishlaydigan xona eng asosiy xona hisoblanadi. Ximiya darslarining o`ziga xos xususiyatlari o`quvchi va o`qituvchining ish o`rnlari maxsus jihozlanishini talab qiladi.



Laboratoriyadagi stollarning yuzasi ximiyaviy moddalar ta`siriga chidamli materiallar bilan qoplanadi. Bunda linoleum, ko`p qatlamlı plastik, rezina, getinaks paranatdan foydalanish mumkin. O`quvchilar ish stollarining ustini qoplash uchun kafel plitkalar, juda qulay materiallardir. Lekin uni yopishtirishda oralarida umuman yoriqlar qoldirmaslik kerak, aks holda beixtiyor to`kilib ketgan reaktiv moddalar o`sha yorliqlardan o`tib ketishi mumkin. O`quv stollariga gaz, elektr toki va suv o`tkaziladi. Stollarda yana o`quvchilar portfellarini saqlashi uchun polka bo`ladi. Ba`zi stollarda tajriba o`tkazish jarayonida kerakli shtativ, idish va boshqalar turadigan maxsus joy ham bo`ladi.

Laboratoriyada stollarni konstruktsiyasiga ko`ra turli variantlarda joylashtirish mumkin.

Ikki kishilik o`quv stollari qator qilib teriladi. Bu stollardagi elektr va suv manbalari o`quvchilarning o`rnidan turmasdan va bir – biriga xalaqit bermasdan suv olishlari va to`kishlari, gaz va elektr manbalaridan tajriba o`tkazish uchun bemalol foydalanishlarini hisobga olib o`rnatalishi lozim. Ularning ustida tajriba o`tkazish uchun stollar umuman bo`sh bo`lishi kerak.

O`qituvchi tomonidan o`tkazilayotgan tajribalarni hamma o`quvchilar bemalol ko`ra olishlari uchun laboratoriyaning poli zinapoyasimon qilib ko`tariladi. Amfiteatr shaklidagi zinapoyasimon pol sinfda yurishni qiyinlashtirishini ham nazarda tutish kerak. Shuning uchun bunday yuzalarni gorizontal qilish maqsadga muvofiqdir. Uni linoleum bilan qorplanadi. Ximiya xonalarini parket bilan qoplanmaydi. Aks xolda, tajriba paytida ximiyaviy moddalar to`kilishi natijasida parket pol tezda yaroqsiz bo`lib qoladi.

Ximiya xonasida oldin kichikroq stollarni keyin kattaroq stollarni qator qilib joylashtirish o`quvchilar tajriba maydonini baravar ko`ra olishlarini ta`minlaydi. Ana shu stollarga mos stullarni ham tanlashlari lozim. Lekin ximiya xonasida qulay o`tirib ishlashlari uchun balandligini o`zgartirish mumkin bo`lgan stullarni o`rnatish maqsadga muvofiqdir. Namoyish stoliga ham suv, gaz va elektr ulanadi. Suv to`kiladigan rakovina stolning chap tomoniga yoki uning davomiga o`rnatiladi. Gaz gorelkalari va elektr manbayiga ulanadigan nuqtalar o`qituvchi o`tiradigan stolning pastki qismiga o`rnatiladi. elektr simlari, gaz va suv trubalari berk holda bo`ladi, lekin ularni ta`mirlash yoki tekshirishda bemalol ochish mumkin bo`lishi lozim.

Fizika xonalari ham ximiya xonalari kabi 2 xonadan- laboratoriya va laborant xonasidan iborat bo`ladi. Bu xonalardagi mebellar ham ximiya xonalari singari joylashtiriladi.

Fizika laboratoriyalarda ikki kishilik stollar qator qilib qo`yiladi. Stollarning yon tomonlariga elektr rozetkasi o`rnatilib, elektr toki ulanadi.

Laborant xonasida shkaflardan tashqari elektr toki ulangan laboratoriya stoli, o`qituvchining stoli, dars uchun kerakli priborlar va o`quv qo`llanmalari tarqatiladigan aravacha bo`lishi kerak.

Biologiya xonasida ham yuqorida aytilgan ikkita xona bo`lib, ulardagi mebellar va boshqa jihozlar ba`zi o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi.

Biologiya xonalarida o`simliklarini korong'u va yorug' sharoitlarda rivojlanish jarayonini o`rganish uchun maxsus kameralar bo`lib, ular lyuminestsent va oddiy elektr lampalari bilan ta`minlanadi ularda ventilyatsiyani kuzatish teshikchalari, shuningdek, yorug' kameralarda etarli yorug'likni ta`minlaydigan va korong'i kameralarda yorug'likni izolyatsiyalaydigan qatlam bo`ladi.

Laboratoriya o`simliklar va akvariumlar uchun taglik va polkalar o`rnatiladi. Devorlarga esa vitrina va bolalarning ishlari, gerbariylar va qiziqarli topilmalarining ko`rgazmasi uchun stendlar o`rnatiladi.

Geografiya xonasi 5-9 - sinf o`quvchilari shug'ullanishi uchun mo`ljallanib, o`quv xonasi bazasida tashkil etiladi.

Xona ikki o`rinli o`quv stollarini va alohida turuvchi stollar bilan jihozlanadi. Oldingi devorga sektsiyali sinf taxtasi o`rnatiladi. Orqa devorga ko`rsatmali quollar o`rnatiladi. Hajmli o`quv qo`llanmalarini joylashtirish uchun teshikchalar ilgaklar, va tokchalar bo`lishi kerak.

Tasviriy san`at va chizmachilik xonalarida 4-6 (tasviriy san`at) va 5-8 (chizmachilik) sinf o`quvchilari shug'ullanadilar. Bu xonada tasviriy san`at to`garagining mashg`ulotlari ham o`tkazilishi mumkin.

Chizmachilik qurollari va rasm chizish uchun kerak bo`lgan asboblarni saqlash uchun stolning o`ng tomoniga g`aladon yasaladi. Unda o`quvchilar chizg`ich, bo`yoqlar, qalamlar va boshqa anjomlarni saqlaydilar.

Chizmachilik va tasviriy san`at xonalarini imkon qadar alohida tashkil qilish, tasviriy san`at xonasiga stul va mol`bertlar quyish maqsadga muvofiqdir. Shunda o`quvchilar rasm chizishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratish mumkin. Mol`berning har xil turlari bo`lib ularning soddarroq shaklli variantlarini duradgorlik ustaxonalarida yashash mumkin.

Mol`bertlarni barcha yoshdagi maktab o`quvchilariga moslab, ya`ni ularning rasm chiziladigan, qog`oz yopishtiriladigan sirtlarni qiya, baland yoki past bo`ladigan qilib yashash kerak.

Tasviriy san`at xonasida o`quvchilar unumli ishlashining eng muhim shartlaridan biri - natura o`rnataladigan tagliklardir. Ularni ham xuddi mol`bertlar singari duradgorlik ustaxonasida tayyorlasa bo`ladi. ularning eng oddysi ikkita taxta yoki qalin fanerni 90 gradus burchak ostida bir biriga mahkamlab sinf taxtasiga osish usulidir. Shuningdek, balandligini o`zgaruvchan qilib ishlangan temir va taxta tagliklar ham mavjud bo`lib turli sinflarda o`quvchilarning bo`ylarini hisobga olib bu tagliklarni balandlatish yoki pasaytirish mumkin. Bunda ham taxta taglik asosidagi teshikchalardan foydalaniлади. Metall tagliklarda natura o`rnataladigan yuza mahkamlangan vertikal asos bo`lib turadigan trubasimon asosda rez`ba ochilib, uni bo`shatib asosni ko`tarish yoki tushirish mumkin bo`lishi kerak. Bu imkoniyatlar tasviriy san`at o`qituvchisiga darsni metodik va didaktik jihatdan to`g`ri tashkil etish imkonini beradi. Har bir tasviriy san`at xonasida bir nechta taglik bo`lishi kerak, chunki ayrim sinflarda naturalarni ikki joyga o`rnatish zarur bo`lib qoladi. Bu tagliklarga o`rnatalgan naturalarni yaxshi tasvirlash, ularning hajmini, rangini aniq ifodalashda ularning to`g`ri yoritilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun reflektorlardan foydalaniлади. Reflektorlarning lampa qismi nafaqat yuqorilatish yoki pastlatish, balki ularni o`ng yoki chap tomonga burish imkonini ham berishi lozim. Reflektor sifatida ayrim stol lampalaridan ham foydalansa bo`ladi.

## **Tayanch tushunchalar**

Nusxa, Emblem, Interer, Eksterer,Rang,Plakat,Piktogramma. Ekspositsiya panno, Metal moybo`yoq, Tempera, Akvarel', Guash'






## **Nazorat savollar**

- 1.Nusxa ko`chirish nima?
2. Ramziy belgilar va emblemalar kompozitsiyasini tuzish ?
- 3.Interer va eksterering badiiy bezatilishi ?
4. Plakat san`ati xakida tushunchalaringiz?



## **Foydanilgan adabiyotlar.**

- .1.O`zbekiston Respublikasining Qonuni «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» haqida. T.: O`zbekiston. 1998.
- 2.Bulatov S.S. O`zbek xalq amaliy bezagi san`ati T.: Mehnat 1991.
- 3.Solovyev S.A. Shrift i dekorativnoye oformleniye.
- 4.Qodirxujayev F. Maktabda badiiy bezash ishlari.
- 5.Xvorostov A.S. Dekorativno-prikladnoye iskusstvo v shkole.

## ILOVALLAR



**Qoralamalar**



**Naqsh ishlaridan namunalar**



**Barglar**



**Gullar**



**Oddiy naqsh namunalari**




Targ'il




Targ'il tortish uchun mashqlar



**Qosimjonov Olimjon shogirdlari bilan**



**Shift bezaklari**



**Y.Qosimov ijodidan namunalar**



**Jalil Hakimov**




**Kursi**



**Naqqosh Qosimov Yo'ldosh ish ustida**




**Naqqosh Umarov Abdurahim ish ustida**




**Naqqosh Shokirov G'ayrat**



**Shokirov G'ayrat ijodiy ishlardidan namuna**



**Naqqosh usta Toir To'xtaxo'jayev kursilari.**




**Naqqosh usta M.To'rayev ijodi (Aylanma naqsh).**



Xalq ustalari. M.To'rayev, O.Fayzullayev, M.Mamajonov, A.Ilhomov, X.Mirzaxmedovlar



Ўзбекистонда хизмат кўрсатган санъат арбоби Илхомов А




Naqqosh Raufov Yoqubjon

Naqqosh A.Ilhomov




**Naqsh ishlardan nammalar**



**Amaliy san'at ishlaridan namunalar**



**Xalq ustasi A.Akparov ijodidan namunalar**




**Mirzaxmedov Xasan Abdullayevich ijodidan namunalar**




**Ijodiy ishlardan namunalar**




## Ranglar



**Ranglarning uchta asosiy xususiyati:  
a-ranglar tusi, b-to'yinganlik, v-oqishlik**



**Qo'shimcha ranglar**



**Qo'shimcha rangda hosil boladigan ranglar**




**Spektr ranglari qo'shish natijasida hosil bo'ladigan ranglar**



Oq



Sariq sabza



Nilobi



Sariq




Senka




Shingof



Zangori



Pushti



Havorang



Jo'sha



To'ti yoyi



Gunavsha




Ko'k





To'q gunavsha

Rang turlari



**Davlat ramzlari**



**Plakatlar**



Xona inter'yerlari




Xona inter'yerlari



O'quv xona inter'rlari



O'quv bino inter'yerlari.



Plakatlar



Code



[prodengiblog.ru](http://prodengiblog.ru)

Yozuvlar

Русские Шрифты Русские Шрифты  
Русские Шрифты Русские Шрифты  
Русские Шрифты Русские Шрифты  
Русские Шрифты Русские Шрифты  
**РУССКИЕ ШРИФТЫ** Русские Шрифты  
Русские Шрифты Русские Шрифты  
Русские Шрифты Русские Шрифты

# ИНТРО

*Кириллица*

А Б В Г Д Е  
Ж З И И К  
Л М Н О П  
Р С Т У Ф Х  
Ц Ч Ш Щ  
Ъ Ы Ъ Э  
Ю Я

Интро-  
инлайн

Yozuvlar

АБВ  
ЕИЗИК  
МОНФРС  
ТУХМШ  
ЮДЯ

Ш  
С

Yozuvlar

The image shows a large, stylized white 'exūta' logo on a red background. The word 'POLISH' is written vertically in white capital letters along the right side of the 't'. Below the main logo, there is a circular badge with the words 'FAJNE CHŁOPAKI' around the perimeter and a stylized male figure in the center. To the right of the badge, the text 'FAJNE CHŁOPAKI' is written in large, bold, white letters, followed by 'ZAKŁADY PRZETWÓRSTWA GRANICZNEGO I INTERNETOWEGO'. Below this, there is a paragraph of smaller white text. To the right of the paragraph, there is contact information: 'LUDZ. UL. JARACZA 45', 'TEL. 42 632 75 04', and an email address 'PAUL\_KIEROWNIK@FAJNECHLOPAKI.COM'. At the bottom right, there is a small blue Facebook icon with the text 'Find us on Facebook'.



Yozuvlar

**ГРАФИКА**

**ГРАФИКА**

**ГРАФИКА**

**ДИЗАЙН**

**ГРАФИКА**

**ДИЗАЙН**

**ДИЗАЙН**

**ГРАФИКА**

**ГРАФИКА**

**ДИЗАЙН**

**ГРАФИКА**

**ГРАФИКА**

**ТВОРЧЕСТВО**

**ДИЗАЙН**

Yozuvlar

# ШРИФТЫ

## РАЗРАБОТКА И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ



ШРИФТОВОЕ ДЕЛО В РОССИИ

СОЗДАНИЕ НАБОРНЫХ ШРИФТОВ

ЭСТЕТИКА ШРИФТОВОГО ДИЗАЙНА

ЮРИДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ШРИФТОВОГО ДЕЛА

ПРАКТИЧЕСКАЯ РАБОТА С КОМПЬЮТЕРНЫМИ ШРИФТАМИ

ФОРМАТЫ ЦИФРОВЫХ ШРИФТОВ И ШРИФТОВЫЕ ПРОГРАММЫ



ЭКОМ

Yozuvlar



Шрифт Шрифт  
Шрифт Шрифт Шрифт  
**Шрифт** **ШРИФТ**  
ШРИФТ *Шрифт*  
Шрифт *Шрифт* Шрифт  
ШЕИФТ **ШРИФТ**  
<http://udfsu/Шрифт> Шрифт

Yozuvlар



Kursilar



Yozuvlar

### **Foydanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» haqida. T.: O'zbekiston. 1998.
2. Axloq va odobga oid hadis namunalari. - Toshkent: Fan,1991.
3. Bulatov S.S. Ganchkorlik va amaliy san'at yog'och o'ymakorligiga oid adabiyotlarning izohli lug'at. - Toshkent: Mehnat, 1991.
4. G'ulomov S.S., Bulatov S.S. Sharqona "Usta-shogird" odobi. UzRO'MTV o'quv adabiyotlari, jurnal va byulletenlarni nashrga tayyorlash markazi, 2000.
5. S.S.Bulatov. O`zbek xalq amaliy san'ati bezagi - T.: "Mexnat" 1991.
6. Nabihev M. Rangshunoslik. - Toshkent: O'qituvchi,1995.
7. Qurbonov T. Odobnama. - Toshkent: O'qituvchi,1991.
8. S.S., Bulatov S.S. Sharkona “Usta-shogird” odobi. O`zROO`MTV o`quv adabiyotlari, jurnal va byulletenlarni nashrga tayyorlash markazi,2000.
9. Qodirxujayev F. Maktabda badiiy bezash ishlari.
10. S.S.Bulatov. O`zbek xalq amaliy san'ati bezagi - T.: "Mexnat" 1991.
11. F.Qodirxo'jayev. Maktabla badiiy bezash ishlari. T.; 1991 y.
12. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. – T.: «Fan» nashriyoti, 1977, 13-bet
13. Azimov I. O`zbekiston naqsh nigorlari. – T.: G`ulom nomli adabiyoti va san`at nashriyoti, 1987, 8-bet.
14. N.Oydinov. O`zbekiston xalqlari san'ati tarixi. (Dastur),T. 1993 y.

### **Xorijiy adabiyotlar**

1. Xvorostov A.S. Dekorativno-prikladnoye iskusstvo v shkole.
2. Solovyev S.A. Shrift i dekorativnoye oformleniye.
3. Смирнов С.И. Шрифт и шрифтовой плакат: М.: "Плакат", 1978, 6-7 – бетлар.
4. [www.nbgt.intal.uz](http://www.nbgt.intal.uz)

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>4</b>
<b>O`zbek, milliy san`atida badiiy naqqoshlikning roli.</b>	
<b>Amaliy san`at va uning turlari. Naqqoshlik san`ati tarixi.</b>	
<b>Naqqoshlik san`atida ishlataladigan asbob-uskunalar va materiallar.....</b>	<b>5</b>
<b>Tarbiya jarayonida amaliy san`atning o`rni va roli.</b>	
<b>Ustoz va shogird odobi.....</b>	<b>9</b>
<b>Badiiy naqqoshlikda zamonaviy ramzlar va milliy qadriyatlar .....</b>	<b>13</b>
<b>Badiiy naqqoshlikning o`ziga xosligi va estetik moxiyati.</b>	
<b>Terminlar to`grisida umumiy tushunchalar.....</b>	<b>17</b>
<b>Rangshunoslik va bo`yoqlardan foydalanish exnologiyalari.....</b>	<b>26</b>
<b>O`quv va tarbiya jarayonida badiiy bezak. Badiiy bezak</b>	
<b>san`ati fanining shakli va mazmuni. Badiiy bezak san`ati</b>	
<b>darslarini tashkil qilish.....</b>	<b>29</b>
<b>Dekorativ san`at printsiplari va vazifalari. Badiiy bezak</b>	
<b>san`ati fanida rang va kompozitsiya.....</b>	<b>34</b>
<b>Kompozitsyaning asosiy qonunlari. Badiiy bezak ishlarida</b>	
<b>yozuvlar. Yozuv kompozitsiyasi e`lon ,shiyor,tabrik matni</b>	
<b>kabi yozuvlarni yozish .....</b>	<b>43</b>
<b>Nusxa ko`chirish. Chizilgan bayram atkritkalari, plakatlardan</b>	
<b>nusha ko`chirish. Ramziy belgilar va emblemalar kompozitsiyasini</b>	
<b>tuzish. Interer va ekstererning badiiy bezatilishi.....</b>	<b>49</b>
<b>ILOVALLAR.....</b>	<b>60</b>
<b>Foydanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>94</b>

